Bu haqida Ibn Arabshohning hunarmand-u ustalar haqida keltirilgan ma'lumotlari muayyan darajada qimmatga ega bo'lgan lekin hanuzgacha taqdiqotchi olimlar nazaridan chetda qolib kelmoqda. Arabshohning asaridan

² Jo'rayev Husen Xayrulloevich, Samijonova Nozila. Amir Temur ilm-fan va madaniyat homiysi // Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. – 2025. – Volume 2. – Issue 7 (05.04.2025). – B. 1040–1045. Online ISSN: 3030-3494.

tadqiqotchilar xususan O'zbekiston tasviriy san'at tarixiga oid kitob yaratgan G.A.Pugachenkova va L.I. Rempellar qisman foydalanishgan. Shu sababli Amir Temur zabt etgan yerlaridan quruvchilar, me'morlar, san'atkoru hunarmandlar olib kelingani qayd qilinadi. Amir Temur buyrug'i bilan Xorazm, Tabriz, Isfaxon, Sheroz va Bog'doddan ustalar keltiriladi .

Ibn Arabshohning asarida ham bu haqida ma'lumot beriladi. Sohibqiron Damashqdan tikuvchilar, to'quvchilar, duradgorlar, otboqarlar, chodir yasovchilarni olib keltiradi deb ma'lumot berib o'tadi. Temur har qanday hunar va kasb bo'lmasin ularda biror yaxshi fazilat ko'rsa shu kasb egalariga g'oyat mehr qo'ygan. Amir Temur davrida ijod qilgan naqqoshu musavvirlardan ba'zilari haqida Vosifiyning "Badoye'ul-vaqoe" risolasida ham yozilgan. Masalan Samarqanddagi shishavoz Mavlono Muhammad Kufuniy bog'u-bo'stonlar va chorbog'lar tarixini chizadigan usta Xo'ja Shomuhammad Hirotdagi Husayn Zardo'zi kabi yana bir qator olimlarning nomlari keltiriladi. Buxoro, Toshkent, Sayram, Shohruxiyada naqqoshlar, sangtaroshlar, xattot, musavvirlar borligiga ishora qilgan. Temur va Temuriylar davrida ijod qilgan musavvir, naqqosh, xattotlar haqida "Boburnoma"da hamanchagina ma'lumotlar berib o'tilgan. Bundan tashqari Ibn Arabshoh Shihobuddin Ahmad Ibn Muhammadning Ibn Abdullox Ibn Ibrohimning "Amir Temur tarixi", Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul vaqoe", Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" hamda Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" kabi asarlarida naqqosh, hunarmand va musavvirlar va ularning ijodiy mahsulini qayd etuvchi ma'lumotlar berib o'tiladi. Ibn Arabshohning tarixiy risolasida Movorounnahrlik emas balki chet ellik hunarmandlar ham madrasa va masjidlar qurilishida ishtirok etkanligi uchun ismlari sir tutilgan degan ma'lumotni yozib ketadi. Arabshohning qoldirgan ma'lumotlar orasida Amir Temur Samarqandda qurdirgan saroylar ichida devoriy rasmlar chizdirgan qaysi saroyda majlis o'tkizsa rassomlar tomonidan chizib saroy devorlariga ilingan. Undan tashqari mashhur ulamolar turli davlat

elchilari kelganda ham rasmlar chizilgan turli rasmlarda Amir Temur turlicha qiyofada tasvirlangan.³

Masalan ba'zi rasmda kulib turgan bo'lsa boshqa rasmda qahrlangan holatda tasvirlangan. Biroq, ko'p suratlar saqlanib qolmaydi faqatgina XV asrdan keyingi vaqtlarda ishlangan sur'atlar saqlanib qoladi. Bertels o'zining "Navoiy va Jomiy" nomli asarida Shohruxga atab qurilgan saroyga ta'rif berib o'tib ketadi. Saroy zamondoshlar olamidagi eng katta saroylardan biri. Saroy devorlarida tasvirlar faqat naqshinkor bo'lmay balki jangovarlik voqealar ham tasvirlangan. Amir Temur va uning saltanati vorislari hammasi san'at ahliga hurmat bilan qaragan mehnatini qadrlagan va homiylik qilib kelgan. Shu boisdan Samarqand, Movorounnahr Xuroson, Balxda madaniy hayot juda taraqqiy etgan. Amir Temur va Temuriylar davrini mubolag'asiz nafaqat o'zbek xalqining balki butkul yaqin va o'rta sharq ellarining musiqa san'atilar uchun jadal ravishda ravnaq topgan hisoblanadi. Manbalarda keltirishicha Temuriylar sulolasining deyarli V asrlik hukmronligi mobaynida xonanda va sozandalar harbiy rasmiy-diplomatik tantalarda doimiy qatnashganlar. Ommaviy bayramlar ularsiz o'tmagan. Bu shundan dalolat beradiki musiqa san'ati boshqa san'at turlaridan ancha yuqori o'rinda turgan. Musiqa san'ati yaxshi rivoj topishi uchun maxsus maktablar tashkil etilgan. U maktablarga malakali ustozlar musiqa san'atidan dars berishgan. O'sha davrning eng mashhur bastakorlari Abdulla Marvarid, Xofiz Shabatiy, qozoq sozandalaridan Xo'ja Abdulloh eng mashhurlari bo'lgan. Temuriylar zamonida yashab ijod etgan buyuk bir musiqashunos Abdurahmon Jomiydir. U Alisher Navoiyning ustoz bo'lganligi bilan mashhurdir. U ikki

³ Jo'rayev Husen Xayrulloevich, Samijonova Nozila. Amir Temur ilm-fan va madaniyat homiysi // Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. – 2025. – Volume 2. – Issue 7 (05.04.2025). – B. 1040–1045. Online ISSN: 3030-3494.

qismdan iborat asar yozadi "Risolayi musiqi" asari hisoblanadi. Bu asarda musiqa san'ati kelib chiqishi va musiqa chalish usullari haqida ma'lumot berilgan.⁴

Sohibqiron musiqiy asboblarga bo'lgan mehri o'zgacha bolgan harbiy yurishlari tasvirlangan miniatyuralardan buni bilib olsa bo'ladi. Amir Temur saroylarining bosh darvozalari tepasiga karnaychi bilan nog'orachilarni shaxsan o'zi tanlab olib qo'yar edi. Dushman qo'shinlari hujum qilganda ular nog'ora va karnaylarni chalib xalqni ogohlantirishgan. Nog'oralarni ovozi eshitgan qo'shinshay holatga kelgan. "Boburnoma"da keltirilishicha Markaziy Osiyo mintaqasida an'aviy san'at turlari bizda ham shakllangan degan fikrlarni bildiradi. Masalan masxara, mutoyiba, Raqs, kurash, yog'och oyoqda yurish, qo'chqor, fil, tuya, kiyik, urishtirish, narda shatranj o'ynash, maymun o'ynatish kabilar shular jumlasidandir. "Boburnomada" raqs san'ati, raqqoslar xususida ham ba'zi qaydlarga duch kelamiz. Xuroson va Movorounnahrda shuhrat qozongan raqqoslar Toxir Chakka, Mahsudali deganlari eng mashhurlari bo'lgan. "Boburnoma" dan yana shu ma'lumki Xuroson va Movorounnahrda har bir sog'lom yigit bolalikdan asov toyni jilovlab poyga uloq, chavandozlikni o'rganishi, ovga chiqishi kamondan o'q uzishni o'rganishi kerak bo'lgan. Hattoki saltanat shahzodalariga ham yoshlik chog'laridan shular o'rgatigan. "Boburnoma" da maydonda o'tkaziladigan tomoshalar haqida ham ma'lumot uchraydi. Bobur shunday yozadi meni katta to'yimda san'atkorlar qatnashdi. Raqqoslar o'rniga lo'lilar raqs ijro etishdi. Buni boshqa lo'lilardan farqi shundaki biz ko'rmagan turdagi raqslar ijro etishgani bilan hammada yaxshi taasurol qoldirishdi deb yozadi.

Amir Temur va temuriylar davrida Samarqand, Movorounnahr va Xurosonda me'morchilik, tasviriy san'at amaliy san'at, adabiyot sohalari kamolot bosqichiga ko'tarilgan.

⁴ Jo'rayev Husen Xayrulloevich, Samijonova Nozila. Amir Temur ilm-fan va madaniyat homiysi // Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. – 2025. – Volume 2. – Issue 7 (05.04.2025). – B. 1040–1045. Online ISSN: 3030-3494.

Temuriylar davlatining qudrati ayniqsa me'morchilikda yaqqol aks etadi. Amir Temur davrida Movorounnahr shaharlari qurulishida istehkomlar me'moriy majmualar, maqbara, madrasalar qurish ishlari keng ko'lamda olib borilgan. Eng avvalo Amir Temur poytaxti bo'lmish Samarqandni bezatishga katta e'tibor beradi. Shaharda qal'a ulug'vor inshootlar va tillakor saroylar bunyod etadi. Shaharlarda me'moriy majmualar shakllanishi shu davrning eng katta yutug'i bo'ldi. Masalan Shohizinda, Go'ri Amir maqbaralari, Bibixonim masjidi, Ulug'bek masjidi shular jumlasidandir. Bundan tashqari diniy inshootlar, hukmdor saroylari, bog'lar, asilzodalarning qarorgohlari ko'plab qurildi. Musulmon sharqining eng noyobme'moriy yodgorligi Temur davrida qurilgan ulkan ishoat Turkistonda joylashgan Ahmad Yassaviy maqbarasi hisoblanadi. Nafaqat Turkiston balki Buxoroda ham qurilish ishlarini olib boradi va Chashmai Ayub yodgorligini qurdiradi. Amir Temur hayotlik vaqtidanoq miniatyura usulida o'zining rasmlarini chizdirib boradi bu rasmlar saroylarda kirish zallarida ko'proq joylashtirilgan.

Amir Temur hunarmand ahlini juda hurmat qilgan qilgan ularni kasblari yanada kengroq tarqalishi uchun turli kasb egalari uchun maktablar ochib bergan. Ko'plab shogirdlar usta hunarmandlarga shogird tushib ularni ishlarini o'rganishgan. Amaliy san'at turlaridan to'qimachilik, gilamdo'zlik, kashtachilik yuksak darajada rivojlangan. Temuriylar davrida ilm-fan rivoji tasodifiy jarayon bo'lmagan, balki davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ongli ravishda qo'llab-quvvatlangan jarayon edi. XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xuroson hududlari uzoq davom etgan mo'g'ullar istilosi va ichki nizolar oqibatida iqtisodiy hamda madaniy tanazzulni boshdan kechirgan bir paytda Amir Temur hokimiyat tepasiga keldi. U davlatni faqat harbiy qudrat bilan emas, balki ilm va tafakkurga tayangan holda mustahkamlash mumkinligini yaxshi anglagan edi. Shuning uchun ham u olimlar, ulamolar, tarixchilar, tabiblar va san'at ahliga alohida hurmat bilan munosabatda bo'lgan.

Tarixiy manbalarda Amir Temurning olimlar bilan tez-tez suhbat qurib turgani, davlat ishlarida ularning maslahatlariga quloq tutgani qayd etiladi. U ilm ahlini saroyga yaqin tutgan, ularga moddiy va ma'naviy ko'mak ko'rsatgan. Masalan, Samarqandda Ko'ksaroy kutubxonasi tashkil etilgan bo'lib, unda turli fanlarga oid qo'lyozmalar jamlangan. Harbiy yurishlar davomida Temur zabt etilgan hududlardan nafaqat hunarmand va me'morlarni, balki olimlar va qo'lyozmalarni ham Samarqandga olib kelgan. Bu siyosat poytaxtni ilmiy va madaniy markazga aylantirishga qaratilgan edi.

Temur davlat daromadlarining muhim qismini bunyodkorlik ishlariga, jumladan madrasa va masjidlar qurishga, ilmiy maskanlarni rivojlantirishga sarflagan. Bu inshootlar faqat diniy markaz emas, balki ilm o'rgatiladigan joylar bo'lib xizmat qilgan. Madrasalarda Qur'on va hadis ilmi bilan bir qatorda mantiq, matematika, falakiyot, tibbiyot va tarix fanlari ham o'qitilgan. Bu esa o'sha davr uchun keng qamrovli ta'lim tizimi mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Shohrux Mirzo davrida ham ilm-fanga e'tibor susaymadi, aksincha, yanada tizimli shakl oldi. Shohrux poytaxtni Hirotga ko'chirganidan so'ng bu shahar ilmiy va madaniy hayot markaziga aylandi. U o'z saroyida tarixchilar, faqihlar, mufasssirlar va adiblarni to'pladi. Aynan Shohrux davrida Abdurazzoq Samarqandiy kabi tarixchilar faoliyat yuritgan, saroy kutubxonalari boyitilgan. Shohrux ilm ahliga yer-suv in'om etish, ularni soliqlardan ozod qilish kabi choralar bilan ularni qo'llab-quvvatlagan.

Temuriylar davrida ilm-fanga davlat miqyosida e'tiborning eng yorqin namunasi Mirzo Ulug'bek faoliyatida namoyon bo'ladi. Ulug'bek nafaqat hukmdor, balki o'zi ham yetuk olim bo'lgani sababli ilmiy muhitni shakllantirishga katta ahamiyat bergan. 1417–1420-yillarda Samarqandda qurilgan Ulug'bek madrasasi o'sha davrning oliy o'quv yurti vazifasini bajargan. Bu madrasa nafaqat Movarounnahr, balki boshqa hududlardan kelgan talabalar uchun ham ochiq bo'lgan. Ulug'bek o'z atrofida Qozi Zoda Rumiy, G'iyosiddin Jamshid

Koshiy, Ali Qushchi kabi yirik olimlarni jamlagan. Ularning hamkorligida 1420–1430-yillarda Samarqand rasadxonasi barpo etildi.

Samarqand rasadxonasi o'sha davrda dunyodagi eng yirik astronomik markazlardan biri hisoblangan. Bu yerda olib borilgan kuzatishlar natijasida “Zij-i Gurgoniy” nomi bilan mashhur astronomik jadval tuzildi. Bu asar nafaqat Sharq, balki Yevropa ilm-fani rivojiga ham ta'sir ko'rsatgan. Rasadxona qurilishi va ilmiy tadqiqotlar davlat mablag'i hisobidan amalga oshirilgani ilm-fanga berilgan e'tiborning davlat darajasida bo'lganini ko'rsatadi.

Temuriylar davrida faqat tabiiy fanlarga emas, balki adabiyot va tarixshunoslik ham rivoj topgan. Husayn Boyqaro davrida Hirot yana bir bor madaniy markazga aylandi. Alisher Navoiy davlat arbobi sifatida ilm va adabiyot ahliga homiylik qildi, kutubxonalar tashkil etdi, ijodkorlarni moddiy qo'llab-quvvatladi. Bu davrda ko'plab qo'lyozmalar ko'chirildi, bezatildi va tarqatildi. Miniatyura san'ati ham aynan shu homiylik natijasida yuksaldi.

Davlat tomonidan ilm-fanga e'tibor berilishining yana bir jihati – ilm ahlining ijtimoiy mavqeini oshirish edi. Olimlar va ulamolar jamiyatda hurmatli tabaqa sifatida ko'rilgan, ular davlat ishlarida maslahat beruvchi sifatida ishtirok etgan. Bu holat ilmni faqat nazariy soha emas, balki davlat boshqaruvining muhim qismi sifatida qaralganini anglatadi.

Temuriylar davrida homiylik tizimi shaxsiy xayriya emas, balki davlat siyosati bilan uyg'un holda olib borilgan. Hukmdorlar ilm-fan rivojini davlat qudrati va nufuzining ajralmas qismi deb bilganlar. Aynan shu sababli XV asr Movarounnahr va Xuroson hududlari Sharq uyg'onishining ikkinchi bosqichi sifatida tarixda alohida o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davrida ilm-fanga davlat miqyosida e'tibor berilishi markazlashgan siyosiy tizim, iqtisodiy barqarorlik va ongli homiylik siyosati bilan bog'liq edi. Amir Temur asos solgan bu an'ana Shohrux, Ulug'bek va Husayn Boyqaro davrida davom etdi va natijada Samarqand hamda

Hirof o'z zamonasining yirik ilmiy va madaniy markazlariga aylandi. Ilm-fanga berilgan bunday keng qamrovli e'tibor Temuriylar davrining tarixiy ahamiyatini belgilab berdi va bugungi kunda ham o'z qadriyatini saqlab qolgan.

3.2. Astronomiya va matematika fanlarining rivoji.

O'zbekiston ilm-fan taraqqiyotining o'choqlaridan biri sifatida jahon arixida o'z o'rniga ega. Yurtimiz mutafakkirlari tomonidan yaratilgan fan asoslari nafaqat O'rta Osiyo, balki jahon ilm-fani ravnaqida ham muhim rol o'ynagan. IX – XII asrlarda erishilgan fan taraqqiyotiga munosib ravishda Amir Temur va temuriylar davrida ham ilmu fan sohasida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. Bu davrda fanning barcha sohalarida sezilarli yuksalish kuzatilib, hozirgi kunda ham o'z ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan bir qator ilmiy asarlar yaratildi. Temuriylar davrida fan taraqqiyotini o'rganish jarayonida asosiy e'tibor yirik davlat arbobi va olim Mirzo Ulug'bek hamda uning astronomiya maktabi ilmiy merosini o'rganishga qaratilgan bo'lib, fanning boshqa sohalarida erishilgan yutuqlarni tadqiq etish e'tibordan chetda qoldi. Holbuki, bu davrda tarix, matematika, texnika, geografiya, tibbiyot, falsafa, fikr va fanning boshqa sohalarida ham sezilarli ilmiy yutuqlarga erishilgan edi.

Amir Temur va Temuriylar davri fan taraqqiyoti va uning yutuqlarini tadqiq etish bir necha asrlar avval boshlangan edi. G'arbiy Yevropada XVII asrdan boshlab Oksford universiteti olimlari Jon Grivs, Braynbrij, Tomas Xayd, G. Sharp, polyak astronomi Yan Geveliy, Grinvich observatoriyasining direktori D. Fleystid, ingliz sharqshunoslari J.J. Sediyo va L.P.Y.A. Sediyo, Fransis Beyli va boshqalar tomonidan — Ulug'bek Zijiga oid qator tadqiqot va nashrlar e'lon qilindi⁵.

Temuriylar davrida astronomiya va matematika fanlari nihoyatda yuksak darajaga ko'tarildi, va bu jarayon tasodifiy emas, balki davlat tomonidan yaratilgan ilmiy muhit, moddiy sharoit va intellektual an'analar davomiyligi bilan chambarchas bog'liq edi. Agar XIII–XIV asrlardagi mo'g'ullar istilosi davrida ko'plab ilmiy markazlar tanazzulga uchragan bo'lsa, XV asrga kelib aynan

⁵ Б.В. Лунин —Улуғбек Зижи шухратининг ошиши ва унинг ҳақидаги билимларнинг жаҳон фанида кўпайиши / Темур ва Улуғбек даври тарихи – Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1996. – Б. 56-57.

Movarounnahr hududida ilm-fan yana jonlandi va ayniqsa falakiyot hamda riyoziyot sohalarida ulkan natijalarga erishildi. Bu jarayonning eng yorqin timsoli, shubhasiz, Mirzo Ulug‘bek va uning atrofida shakllangan ilmiy maktabdir.

Mirzo Ulug‘bek 1394-yilda tug‘ilgan bo‘lib, yoshligidan ilmga qiziqqan va keyinchalik Movarounnahr hokimi sifatida nafaqat siyosiy, balki ilmiy faoliyat bilan ham shug‘ullangan. U hukmdor sifatida Samarqandni ilmiy markazga aylantirishni maqsad qilgan va bu yo‘lda amaliy choralar ko‘rgan. 1417–1420-yillarda Samarqandda bunyod etilgan Ulug‘bek madrasasi o‘sha davrning yirik ilmiy markazlaridan biriga aylandi. Bu madrasa oddiy diniy ta‘lim maskani emas, balki matematika, mantiq, astronomiya kabi fanlar chuqur o‘qitiladigan ilmiy o‘choq edi. Bu yerda Qozi Zoda Rumi, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, keyinchalik Ali Qushchi kabi yirik olimlar faoliyat yuritgan.

Astronomiya fanining rivojida Samarqand rasadxonasining o‘rni beqiyosdir. Taxminan 1424–1429-yillar oralig‘ida qurilgan bu rasadxona o‘sha davr uchun noyob ilmiy inshoot bo‘lib, unda diametri qariyb 40 metrga yaqin bo‘lgan ulkan sekstant qurilmasi o‘rnatilgan edi. Bu asbob yordamida yulduzlarning koordinatalari, Quyosh va Oy harakati juda aniq o‘lchangan. Rasadxona qurilishi shuni ko‘rsatadiki, Temuriylar davrida ilmiy tadqiqotlar tasodifiy kuzatuv emas, balki tizimli va aniq hisob-kitoblarga asoslangan jarayon bo‘lgan.

Ulug‘bek va uning ilmiy jamoasi tomonidan yaratilgan “Zij-i Gurgoniy” asari astronomiya tarixida muhim o‘rin tutadi. Bu asarda 1018 ta yulduzning koordinatalari keltirilgan bo‘lib, ularning joylashuvi yuqori aniqlik bilan belgilangan. Yulduzlar katalogi Ptolemeyning qadimgi “Almagest” asaridan keyingi eng mukammal ro‘yxatlardan biri hisoblanadi. Ulug‘bekning yulduz yilini aniqlashdagi natijasi ham diqqatga sazovordir. U tropik yil uzunligini 365 kun 6 soat 10 daqiqa 8 soniya deb hisoblagan, bu zamonaviy hisob-kitoblardan atigi bir necha soniyaga farq qiladi. Bu natija XV asr sharoitida qo‘l bilan bajarilgan kuzatuv va hisob-kitoblar uchun nihoyatda yuqori aniqlikni anglatadi.

Matematika fanida ham Temuriylar davrida muhim yutuqlarga erishildi. G'iyosiddin Jamshid Koshiy o'z davrining yirik matematiklaridan biri bo'lib, u o'nli kasrlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan. Uning "Miftah al-hisob" asari hisob ilmi bo'yicha mukammal qo'llanma sifatida yozilgan. U pi sonining qiymatini o'n oltinchi o'nlik belgigacha aniqlaganligi tarixiy manbalarda qayd etiladi. Bu esa Yevropa matematiklari hali bu darajaga yetmagan davrda Samarqand maktabi naqadar ilg'or bo'lganini ko'rsatadi.

Qozi Zoda Rumiy esa astronomiya va matematika fanlarini uyg'un holda rivojlantirgan olimlardan biri edi. U Ulug'bek madrasasida dars bergan va rasadxona faoliyatida faol ishtirok etgan. Ali Qushchi keyinchalik Usmoniylar davlatiga borib, Istanbulda ilmiy faoliyat olib borgan va Temuriylar ilmiy an'analari boshqa hududlarga yoygan. Bu faktning o'ziyoq Samarqand ilmiy maktabi mintaqaviy emas, balki xalqaro ahamiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Temuriylar davrida astronomiya faqat yulduzlarni kuzatish bilan cheklanmagan, balki kalendar tuzish, namoz vaqtlarini aniqlash, qibla yo'nalishini belgilash, dengiz va quruqlik navigatsiyasi kabi amaliy masalalarda ham qo'llanilgan. Shuning uchun falakiyot ilmi diniy va kundalik hayot bilan ham bog'liq bo'lgan. Matematik hisob-kitoblar qurilish, savdo, yer o'lchash va soliqlarni aniqlashda ham zarur edi. Bu esa riyoziyot fanining jamiyat hayotidagi ahamiyatini yanada oshirgan.

Temuriylar davrining ilmiy yutuqlari shuni ko'rsatadiki, bu davrda ilm-fan rivoji hukmdorlarning shaxsiy qiziqishi bilan bir qatorda davlat siyosatining natijasi ham edi. Rasadxona qurilishi, madrasalar faoliyati, olimlarga berilgan homiylik ilmni davlat darajasida qo'llab-quvvatlash namunasidir. Aynan shu sababli XV asr Movarounnahr hududi Sharq uyg'onishining muhim bosqichi sifatida tarixda qoldi.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davrida astronomiya va matematika fanlari yuqori bosqichga ko'tarildi, bu jarayon ilmiy maktablar shakllanishi,

rasadxona faoliyati, aniq kuzatuv va hisob-kitoblar asosida amalga oshirildi. Mirzo Ulugʻbek va uning atrofidagi olimlar yaratgan ilmiy meros keyingi asrlarda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmadi va jahon ilm-fani taraqqiyotida muhim oʻrin egalladi. Bu davr ilmiy muhitining kuchi shundaki, u nafaqat oʻz zamonasi ehtiyojlariga javob berdi, balki kelajak avlodlar uchun ham mustahkam ilmiy poydevor yaratdi.

3.3. Tibbiyot va tabiiy fanlarning rivojlanishi

Temuriylar imperiyasi asoschisi, Oltin O'rda, Mamluk sultonligi, Dehli sultonligi, Usmonli davlati, Kavkaz va Erondagi davlatlarni birin-ketin yengish ortidan musulmon olamining to'la yetakchisi, yeri 4,4 mln km² ga yetishgan 14-yuzillikning eng kuchli davlati quruvchisi, 35 yillik boshqaruvi va yurishlari chog'ida biror urushni yutqazmagan qo'shiboshnisi, o'tmishda ko'rilgan uchta buyuk harbiy-taktik urush va yurish qo'mondonlaridan biri, Temuriylar uyg'onish davri yaratuvchisi, ilm-fan, me'morchilik, san'at va adabiyot homiysi.

Hofizi Abru'ning yozishicha, Amir Temur turk, arab va eronliklar tarixini chuqur bilgan. U davlat ahamiyatiga ega bo'lgan har bir masalani hal etishda, shu sohaning bilimdonlari va ulamolari bilan maslahatlashardi. Amir Temur saroyida ulamolardan mavlono Abdujabbor Xorazmiy, mavlono Shamsuddin Munshi, mavlono Abdullo Lison, mavlono Bahrudin Ahmad, Mavlono Mo'minuddin Xorazmiy, Xo'ja Afzal, mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiy va boshqa xizmat qilardi. Alisher Navoiyga Amir Temurning ilm va ma'naviyat ahliga ko'rsatgan g'amxo'rligi juda yoqardi. Bu haqda Navoiy shunday degandi: "Agar Temur qayerda fan, madaniyat va san'at ahlini uchrasa, ularni o'z homiyligiga olar va ularga izzat-ikrom ko'rsatar, ularning tarbiyasiga ahamiyat berar hamda bu zotlardan o'z oliy majlisida nadim (maslahatchi) sifatida va boshqa lavozimlarda foydalanardi".

Temuriylar davlati nafaqat hozirgi O'zbekiston, balki butun Yevrosiyo hududlarini o'z ichiga olgan ulkan va qudratli davlatni tuzishga va eng asosiysi, bu yerda yashagan 72 millatni birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Shuni ta'kidlash kerakki, aynan Amir Temurning siyosiy kurash maydoniga kelishi va Markaziy Osiyoda yashaydigan xalqlarni birlashtirishi Yevrosiyo mintaqasida turli ilmiy va madaniy maktablarning qo'shilishiga va turli kashfiyot va uslublarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. O'rta Osiyoda sharq ilmiy tafakkuri umumlashib, uyg'unlashib, bir-birining eng ilg'or taraflarini olib, yangi taraqqiyot cho'qqisiga

ko‘tarildi, Amir Temur va temuriylar davri o‘ziga xos ilmiy va falsafiy tafakkuri paydo bo‘ldi, ilm-fan uyg‘unlashuvi kuchaydi, bir so‘z bilan aytganda, baynalminal ko‘prik o‘rnatildi.

Temur ilm ahlilarini qo‘llab-quvvatlagan, har turli fanlarni ayniqsa, amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan fanlar rivojlanishining tarafdori bo‘lgan. U zabt etgan mamlakatlardan faqat oltin, kumushlarni emas, balki nodir kitoblarni ham olib kelardi. Temur kitoblarni juda qadriyat etardi.

Amir Temur ilm-fan, ma‘naviyat ahliga alohida e‘tibor va mehribonlik ko‘rsatib, jamiyatning madaniy hayotida ulardan foydalanishga intilar edi. Tarixchi ibn Arabshoh yozganidek, “Temur olimlarga mehribon, sayyid-u shariflarni o‘ziga yaqin tutar edi. Ulamo va fuzaloga to‘la izzat-hurmat ko‘rsatib ularni har qanday odamdan tamom muqaddam ko‘rardi. Ularning har birini o‘z martabasiga qo‘yib, izzat-u ikromini izhor qilardi”. Temur va temuriylar davrida islom dini va tasavvufga katta e‘tibor berildi. Islom dini o‘sha davrda asosiy mafkura bo‘lib, markazlashgan davlat barpo etishda, iqtisod, madaniyat va ilm-fan sohasidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. Temur o‘z faoliyatida unga tayanib ish ko‘rdi. XIV–XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fanning ko‘p sohalarida yuksalish yuz berdi. Jahonga mashhur olimlar, tabiatshunoslar va shoirlar yetishib chiqdi. Tibbiyot, riyoziyot, handasa, tarix, adabiyot, jug‘rofiya, pedagogika, mantiq, falsafa, axloqshunoslik va boshqalarga e‘tibor berildi. Ayniqsa, badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik tez rivoj topa boshladi.⁶

Temuriylar davrida ilm-fan rivoji haqida gap ketganda ko‘pincha astronomiya va matematika tilga olinadi, biroq bu davrda tibbiyot va tabiiy fanlar ham ancha yuksalganini unutmaslik kerak. XIV asr oxiri va XV asr boshlarida

⁶ Obidov Islombek Ilxomjon o‘g‘li, Karimjonov Marufjon Murodulla o‘g‘li, Abdurashidov Eldorbek Abdulaziz o‘g‘li. Amir Temur davrida tibbiyotning rivojlanishi // Ilm-fan va ta‘lim ilmiy jurnali. – 2023. – №6(21). – 180–182-betlar.

Movarounnahr va Xuroson hududlarida siyosiy barqarorlik tiklanishi bilan birga ilmiy hayot ham jonlana boshladi. Shaharlar obod qilindi, madrasalar va kutubxonalar tiklandi, natijada tibbiyot, botanika, geografiya, tarixshunoslik kabi fanlar uchun zarur muhit shakllandi. Bu jarayon avvalo Amir Temur davrida boshlangan bo'lsa, keyinchalik Shohrux, Ulug'bek va Husayn Boyqaro davrida davom etdi.

Tibbiyot sohasining rivojlanishi uchun bir necha omillar muhim rol o'ynagan. Birinchidan, harbiy yurishlar davrida shifokor va tabiblarga ehtiyoj juda katta bo'lgan. Uzoq safarlar, janglar, yarador askarlarni davolash, yuqumli kasalliklarning oldini olish kabi masalalar davlat darajasida hal etilishi kerak edi. Shuning uchun saroyda malakali tabiblar xizmat qilgan. Tarixiy manbalarda Amir Temur saroyida Husomiddin Ibrohimshoh Kermoniy, mavlona Ahmad kabi tabiblar faoliyat yuritgani qayd etiladi. Bu shifokorlar nafaqat amaliy davolash bilan shug'ullangan, balki tibbiy bilimlarni yozma ravishda ham rivojlantirgan.

Temuriylar davrida tibbiyot an'anaviy islomiy va yunon tabobati merosiga tayangan holda rivojlandi. Abu Ali ibn Sinoning "Al-Qonun fi't-tibb" asari o'sha davrda ham asosiy qo'llanmalardan biri bo'lib qolgan. Madrasalarda tibbiyot alohida fan sifatida o'qitilgan, tabiblar esa nafaqat kasallikni davolash, balki sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bilan ham shug'ullangan. Shifoxonalar, ya'ni dor ush-shifo muassasalari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, bu yerda bemorlar bepul yoki davlat ko'magida davolangan. Bu esa tibbiyotga davlat tomonidan e'tibor qaratilganini ko'rsatadi.

Shohrux va Husayn Boyqaro davrida Hirot shahri nafaqat adabiyot va san'at, balki tibbiyot markaziga ham aylangan. Bu yerda faoliyat yuritgan tabiblar dorivor o'simliklar, kasalliklarning oldini olish, jarrohlik usullari haqida asarlar yozganlar. Tabiiy fanlar, ayniqsa botanika va farmakologiya tibbiyot bilan bevosita bog'liq ravishda rivojlangan. Dorivor o'simliklarni o'rganish, ularning xususiyatlarini aniqlash va amaliyotda qo'llash keng yoyilgan edi. O'sha davr tabiblari

kasalliklarni davolashda o'simliklardan, mineral moddalar va hayvon mahsulotlaridan foydalangan.

Tabiiy fanlarning boshqa yo'nalishlari ham Temuriylar davrida rivoj topdi. Geografiya va yer o'lchash ilmi davlat boshqaruvi va harbiy yurishlar uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Keng hududlarni boshqarish uchun yo'llar, masofalar, suv manbalari haqida aniq ma'lumot zarur edi. Shu sababli xarita tuzish, hududlarni tasvirlash ishlari olib borilgan. Tarixiy manbalarda Abdurazzoq Samarqandiy kabi mualliflar asarlarida turli hududlar, shaharlar va mamlakatlar haqida ma'lumotlar keltiriladi, bu esa geografik tasavvurning kengayganini ko'rsatadi.

Tabiiy fanlarning yana bir yo'nalishi – meteorologik kuzatuvlar va vaqt hisoblash bilan bog'liq bo'lgan ilmiy ishlardir. Astronomiya bilan chambarchas bog'liq holda ob-havo, yil fasllari, hosildorlik kabi masalalar ham o'rganilgan. Qishloq xo'jaligi davlat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgani sababli tabiiy jarayonlarni tushunish muhim ahamiyat kasb etgan. Sug'orish tizimlarini tiklash, kanallar va ariqlar qurish, suv taqsimotini nazorat qilish ham tabiiy fanlarga tayangan holda amalga oshirilgan.

Temuriylar davrida ilmiy muhitning shakllanishida kutubxonalar alohida o'rin tutgan. Samarqand va Hirot kutubxonalarida nafaqat diniy va adabiy asarlar, balki tibbiyot, falsafa va tabiiy fanlarga oid qo'lyozmalar saqlangan. Boysunqur Mirzo kutubxonasi o'z davrining yirik ilmiy markazlaridan biri bo'lgan. Bu yerda qo'lyozmalar ko'chirilgan, tahrir qilingan va bezatilgan. Ilmiy asarlarning saqlanishi va tarqalishi tibbiyot hamda tabiiy fanlar rivojiga zamin yaratgan.

Tibbiyot va tabiiy fanlar rivojining yana bir muhim jihati – ilmiy an'ananing uzluksizligi edi. Temuriylar davri olimlari o'zlaridan oldingi allomalar, xususan, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy merosini chuqur o'rganib, davom ettirdilar. Bu davrda yaratilgan asarlar keyingi asrlarda ham qo'llanilgan. Ayniqsa,

tabobatga oid qo'llanmalar uzoq vaqt davomida o'quv manbasi bo'lib xizmat qilgan.

Amir Temur davrida ilm-fan, ayniqsa tibbiyot sohasi rivojlanishi davlat siyosati bilan bevosita bog'liq holda shakllangan muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xuroson hududlarida kuchli markazlashgan davlat barpo etilishi bilan jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan ilmiy tafakkur va amaliy fanlarda sezilarli yuksalish kuzatildi. Amir Temur nafaqat harbiy-siyosiy arbob, balki ilm va ma'rifatga e'tibor qaratgan hukmdor sifatida ham tarixda alohida o'rin egallaydi.

Tarixiy manbalarga ko'ra, Amir Temur turli xalqlar tarixini yaxshi bilgan va davlat boshqaruvida ilmli insonlarning maslahatiga tayanishga harakat qilgan. Uning saroyida turli sohalarda faoliyat yuritgan ulamolar, tabiblar va olimlar xizmat qilgan. Ular orasida Xorazmiy, Shamsuddin Munshiy, Bahouddin Ahmad, Alouddin Koshiy kabi shaxslar tilga olinadi. Bu holat Temur saroyida ilm ahli uchun keng imkoniyat yaratilganini ko'rsatadi. Ilmga hurmat va e'tibor o'sha davr madaniy muhitining asosiy xususiyatlaridan biri bo'lgan.

Temuriylar davlati hudud jihatdan nihoyatda kengayib, Yevrosiyaning katta qismi yagona siyosiy makonga aylantirilgan. Bu esa turli hududlarda shakllangan ilmiy va madaniy an'analarni bir-biri bilan uyg'unlashishiga zamin yaratdi. Markaziy Osiyo hududida turli maktab va ilmiy yo'nalishlarning qo'shilishi natijasida o'ziga xos ilmiy-falsafiy muhit shakllandi. Natijada fanlararo aloqalar mustahkamlandi, tajriba almashish kuchaydi va yangi ilmiy g'oyalar yuzaga keldi. Amir Temur ilm ahliga homiylik qilgan, ayniqsa amaliy ahamiyatga ega fanlarni qo'llab-quvvatlagan. U zabt etilgan mamlakatlardan nafaqat moddiy boyliklarni, balki ilmiy qo'lyozmalar va kitoblarni ham olib kelganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Kitob va bilimga bunday munosabat ilmiy merosning saqlanishi va tarqalishiga xizmat qilgan. Ilm ahli davlat himoyasida bo'lgani sababli ularning faoliyati yanada samarali kechgan.

Temuriylar davrida islom dini jamiyat hayotida muhim o‘rin tutgan bo‘lib, ilm olish diniy qadriyat sifatida e’tirof etilgan. Madrasalarda diniy fanlar bilan bir qatorda mantiq, falsafa, matematika va tibbiyot ham o‘qitilgan. XIV–XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fanning ko‘plab yo‘nalishlarida yuksalish kuzatilgan. Bu davrda falakiyot, mantiq, tarix, adabiyot va pedagogika sohalarida mashhur olimlar yetishib chiqqan.

Tibbiyot sohasida ham sezilarli rivojlanish yuz bergan. Yirik shaharlarda kasalxonalar, dorixonalar, tibbiy maktablar tashkil etilgan. Hirotida XV asrning 80-yillarida barpo etilgan “Shifoia” nomli tibbiy majmua bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Bu maskan nafaqat davolash muassasasi, balki ilmiy markaz sifatida ham faoliyat yuritgan. Unda kasalxona, dorixona, hammom va madrasaning mavjudligi tibbiyotning amaliy va nazariy jihatdan birgalikda rivojlanganini ko‘rsatadi.

Temuriylar davrida tabiblar bemorlarni faqat dori-darmon bilan emas, balki ruhiy qo‘llab-quvvatlash usullari orqali ham davolashga harakat qilganlar. Bu jarayonda diniy va axloqiy qadriyatlarga tayanilgan. Shifoxonalarda diniy matnlarni o‘qish, sabr va tavakkul g‘oyalarini targ‘ib qilish orqali bemorning ruhiy holatini mustahkamlash amaliyoti qo‘llanilgan. Bu esa tibbiyotning ma‘naviy-axloqiy asoslar bilan uyg‘un holda rivojlanganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, Amir Temur va uning vorislari davrida ilm-fan va tibbiyot davlat miqyosida qo‘llab-quvvatlangan, ilmiy muhit shakllangan va turli fan sohalarida sezilarli yutuqlarga erishilgan. Bu jarayon keyingi asrlarda ham o‘z ta’sirini saqlab qolgan va Temuriylar davri Sharq uyg‘onishining muhim bosqichi sifatida tarixda mustahkam o‘rin egallagan.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davrida tibbiyot va tabiiy fanlarning rivojlanishi siyosiy barqarorlik, iqtisodiy tiklanish va ilmiy homiylik bilan bog‘liq holda amalga oshdi. Bu davrda tabiblar saroy va shahar hayotida muhim o‘rin egallagan, dor ush-shifo muassasalari faoliyat ko‘rsatgan, dorivor o‘simliklar va amaliy davolash usullari keng qo‘llanilgan. Geografiya, yer o‘lchash, suv xo‘jaligi

kabi tabiiy fanlar ham davlat boshqaruvi ehtiyojlari bilan uyg'un holda rivoj topgan. Shu sababli Temuriylar davri nafaqat madaniyat va adabiyot, balki tibbiyot va tabiiy fanlar tarixida ham muhim bosqich hisoblanadi.

3.4. Tarix fanining rivojlanishi.

Temuriylar davrida tarix fanining rivojlanishi davlat siyosati, saroy madaniyati va ilmiy muhit bilan bevosita bog‘liq holda shakllanganini ko‘ramiz. XIV asr oxiri va XV asr boshlarida markazlashgan davlat barpo etilishi bilan birga o‘tmishni yozib qoldirish, siyosiy voqealarni hujjatlashtirish va hukmdorlar faoliyatini tarix sahifalariga muhrlash masalasi muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Chunki kuchli davlat o‘zining tarixiy asosini yaratishi, o‘zini avvalgi an‘analar bilan bog‘lashi va kelajak avlodlarga siyosiy tajribasini yetkazishi zarur edi. Shu bois Temuriylar davrida tarixshunoslik alohida e‘tibor qaratilgan ilmiy yo‘nalishga aylandi.

Amir Temur davridayoq tarix yozish an‘anasiga alohida e‘tibor berilganini ko‘ramiz. Temurning o‘zi savodli bo‘lganligi, tarixiy voqealarga qiziqqanligi va o‘z faoliyatini yozma manbalarda mustahkamlashga intilgani manbalarda qayd etiladi. Nizomiddin Shomiy tomonidan yozilgan “Zafarnoma” asari Temur hayotiga bag‘ishlangan ilk yirik tarixiy asarlardan biridir. Keyinchalik Sharafiddin Ali Yazdiy shu nom bilan mashhur bo‘lgan yana bir “Zafarnoma” asarini yaratdi. Bu asar Temurning harbiy yurishlari, davlat boshqaruvi, siyosiy qarorlarini batafsil bayon etadi. Sharafiddin Ali Yazdiy asarini Shohrux davrida yozgan bo‘lib, unda Temur shaxsini nafaqat sarkarda, balki davlat arbobi sifatida ham tasvirlaydi. Bu fakt shuni ko‘rsatadiki, Temuriylar davrida tarix yozish shunchaki voqealarni sanab o‘tish emas, balki siyosiy g‘oya va davlat mafkurasini shakllantirish vositasi ham bo‘lgan.

Shohrux Mirzo davrida tarix faniga yanada kengroq yo‘l ochildi. Saroyda tarixchilar to‘plandi, qo‘lyozmalar yig‘ildi va qayta tahrir qilindi. Abdurazzoq Samarqandiy tomonidan yozilgan “Matla’ us-sa’dayn va majma’ ul-bahrayn” asari XV asr tarixshunosligining yirik namunalaridan biri hisoblanadi. Bu asarda Temuriylar davrining siyosiy voqealari, diplomatik aloqalari va ijtimoiy hayoti haqida muhim ma’lumotlar berilgan. Asarning qimmatligi shundaki, muallif ko‘plab

voqealarning bevosita guvohi bo'lgan yoki zamondoshlaridan eshitgan ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

Temuriylar davrida tarix fanining rivojlanishida saroy kutubxonalarining o'рни ham muhim bo'lgan. Samarqand va Hirotida boy qo'lyozma to'plamlari mavjud bo'lib, ularda qadimgi yunon, fors va arab tarixchilari asarlari saqlangan. Bu asarlar Temuriylar tarixchilari uchun ilmiy manba vazifasini bajargan. Boysunqur Mirzo davrida Hirot kutubxonasi ayniqsa mashhur bo'lgan. Bu yerda tarixiy asarlar ko'chirilgan, bezatilgan va tizimlashtirilgan. Kutubxonalar faqat kitob saqlanadigan joy emas, balki ilmiy muhokama va ijodiy fikr almashinuvi markazi bo'lgan. Husayn Boyqaro davrida Hirot yana bir bor tarixshunoslik markaziga aylandi. Bu davrda yashagan Mirxond "Ravzat us-safo" nomli ko'p jildli umumiy tarix asarini yozgan. Asar insoniyat tarixini qadimgi davrlardan boshlab muallif yashagan davrgacha qamrab oladi. Mirxondning nabirasi Xondamir esa tarix yozish an'anasini davom ettirib, "Habib us-siyar" asarini yaratgan. Bu asarlar keyingi asrlarda ham keng foydalanilgan va Sharq tarixshunosligida muhim manba sifatida e'tirof etilgan.

Temuriylar davrida tarix fanining rivojlanishi faqat saroy tarixchilari bilan cheklanib qolmagan. Bu davrda mahalliy tarixiy voqealar, shaharlar tarixi, mashhur shaxslar hayoti haqida ham yozilgan. Tarixshunoslik asta-sekin umumiy siyosiy voqealarni tasvirlashdan tashqari, ijtimoiy va madaniy hayotni ham qamrab ola boshladi. Masalan, Alisher Navoiy o'zining "Majolis un-nafois" asarida adabiy muhit va ijodkorlar haqida ma'lumot berib, biografik tarix yozish an'anasini rivojlantirdi. Bu ham tarix fanining kengayib borayotganini ko'rsatadi. Tarix fanining rivojlanishida davlat homiyligi muhim omil bo'lgan. Hukmdorlar tarixchilarni qo'llab-quvvatlagan, ularga moddiy sharoit yaratgan va asarlarini yozishga sharoit bergan. Bu esa tarix yozish jarayonining izchil va tizimli bo'lishiga imkon yaratgan. Tarixchilar o'z asarlarida hukmdorlar faoliyatini yoritgan bo'lsalar-da, ko'plab voqealarni aniq sanalar va tafsilotlar bilan qayd

etganlar. Shu jihatdan Temuriylar davri tarixiy manbalari keyingi tadqiqotchilar uchun qimmatli ma'lumot manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Temuriylar davrida tarix yozish an'anasi o'zidan oldingi musulmon tarixshunosligi merosiga tayangan holda, uni boyitdi va yangi bosqichga olib chiqdi. Tarixchilar voqealarni nafaqat siyosiy jihatdan, balki ma'naviy va axloqiy mezonlar asosida ham baholashga harakat qildilar. Bu esa tarix fanining faqat voqealar ketma-ketligi emas, balki saboq beruvchi ilm sifatida qaralganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davrida tarix fanining rivojlanishi davlat siyosati, saroy homiyligi va boy ilmiy muhit bilan bog'liq holda amalga oshdi. Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond va Xondamir kabi tarixchilar yaratgan asarlar nafaqat o'z davrining siyosiy voqealarini yoritdi, balki keyingi asrlar uchun ham mustahkam manba bo'lib qoldi. Shu sababli Temuriylar davri Sharq tarixshunosligi taraqqiyotida muhim bosqichlardan biri sifatida baholanadi.

IV-BOB. MADANIYAT VA SAN'ATNING YUKSALISH DAVRI

4.1. Me'morchilik va shaharsozlik san'ati

Amir Temur qurish, yaratish mentaliteti bo'lgan xalqning farzandi, tabiatan bunyodkor bo'lib tug'ilgan monandi yo'q zot edi. "...Amr etdimki, — deb yozadi Amir Temur “Tuzuklar”da, - katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, Madrasa va xonaqohlar bino qilsunlar, faqiru miskinlarga langarxona(musofirxona) solsunlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsunlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasunlar. Har bir shaharda dorul-amorat(hukmdor saroyi) va dorul-adolat(adolat saroyi) qursunlar...” Bunyodkorlik Sohibqiron davrida davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan edi, deyish mumkin. Amir Temur faqat o'z mamlakatidagina emas, balki boshqa yurtlarda xam bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgani buning dalilidir. Dastavval saltanat poytaxti qilib belgilangan Samarqandni dunyoning eng obod shahriga aylantirdi, ulug'vorligini ko'rsatish uchun, atrofida Damashq, Bag'dod, Misr, Sheroz, Sultoniya kabi dunyoning mashhur shaharlari nomlari bilan atalgan, bog'-rog'larga ko'milgan qishloqlar barpo qildirdi. Mamlakatda yo'llar kengaytirildi, ko'priklar solindi, ravotlar tiklandi, bozorlar orastalandi, binolar qad ko'tardi, xiyobonlar barpo etildi, bog'lar yashnadi. Bu bog'lar haqida ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo o'z kundaliklarida zavq-shavq bilan qalam tebratgan. Ularning ichida Gulbog', Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog' Nav va boshqa bog'lar nomi bor.

Samarqandda Ko'ksaroy, Amir Temur Jome masjidi, Bibixonim madrasasi, masjidi, Kusam ibn Abbos me'moriy majmui, Amir Temur maqbarasi, Shaxrisabzda Dorut-tilovat majmui, muhtasham Oqsaroy, Turkiston shaxridagi Xoja Axmad Yassaviy xonaqo-maqbarasi, Toshkent yaqinida Zangi ota maqbarasi, Naxri Barlos arig'i, Kobul atroflari, Farg'ona vodiysi, Murg'ob vodiysidagi yerlarga, Ozarbayjondagi Mug'on cho'llariga suv

chiqarilishi, Shoxruhiya, Baylaqon shaharlarining bunyod etilishi, Tabriz, Bag‘dod va Gurganj shaharlarining qayta tiklanishi...

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Sharafiddin Ali Yazdiyning: “Sohibqiron har yerdakim, imoratqa qobil yer ko‘rsa erdi, ul yerda albatta bir imorat solur erdi...” degan so‘zlari zinhor mubolag‘a emas.⁷

Temuriylar davrida me‘morchilik va shaharsozlik san‘ati davlat qudrati, siyosiy barqarorlik va madaniy yuksalishning eng yaqqol ko‘rinishlaridan biri bo‘ldi. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgan paytda Movarounnahr hududidagi ko‘plab shaharlar mo‘g‘ullar istilosi va ichki nizolar oqibatida ancha vayron holga kelgan edi. Shu sababli yangi davlatni mustahkamlash jarayoni avvalo shaharlarni tiklash va obod qilishdan boshlandi. Temur yaxshi tushungan bir haqiqat bor edi: mustahkam davlat faqat kuchli qo‘shin bilan emas, balki obod shaharlar, tartibli ko‘chalar, savdo-sotiq rivojlangan bozorlar va muhtasham inshootlar orqali ham namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u me‘morchilikni davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylantirdi.

Samarqand Temuriylar davrida eng yirik me‘moriy markazga aylandi. Amir Temur uni poytaxt etib tanlagach, shaharni tubdan qayta qurish ishlarini boshladi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Temur zabt etilgan hududlardan ko‘plab me‘morlar, ustalar, naqqoshlar va hunarmandlarni Samarqandga olib kelgan. Bu jarayon majburiy ko‘chirish ko‘rinishida bo‘lgan bo‘lsa-da, natijada turli hududlarning me‘moriy an‘analari bir joyda jamlandi va o‘ziga xos yangi uslub shakllandi. Samarqandda bunyod etilgan Bibixonim masjidi, Go‘ri Amir maqbarasi, Shohizinda majmuasi o‘sha davr me‘morchiligining eng yirik namunalari hisoblanadi.

⁷ Али, Мухаммад. Амир Темур солномаси. — Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. — 13–14-бетлар

Bibixonim masjidi qurilishi 1399–1404-yillarga to‘g‘ri keladi va u o‘z zamonasida musulmon olamidagi eng katta masjidlardan biri bo‘lgan. Uning baland peshtoqlari, ko‘k rangli gumbazlari, sirlangan koshinlari va murakkab geometrik naqshlari Temuriylar me‘morchiligining asosiy belgilarini aks ettiradi. Bu inshoot nafaqat diniy ibodat maskani, balki davlat qudratini namoyish etuvchi ramziy obida sifatida ham qurilgan. Go‘ri Amir maqbarasi esa Temur va uning avlodlari dafn etilgan muqaddas maskan bo‘lib, undagi gumbaz shakli, ichki bezaklar va marmar sag‘analar o‘sha davr me‘moriy didining yuksak darajasini ko‘rsatadi.

Shaharsozlik masalasida Temuriylar davri alohida e‘tiborga loyiqdir. Shaharlar faqat markaziy maydon yoki saroy atrofida emas, balki aniq reja asosida rivojlantirilgan. Ko‘chalar kengaytirilgan, bozorlarga alohida hudud ajratilgan, karvonsaroylar va hammomlar qurilgan. Savdo yo‘llari bilan bog‘langan shahar darvozalari mustahkamlangan. Samarqand, Shahrisabz, Buxoro kabi shaharlarda markaziy maydon atrofida diniy, ma‘muriy va savdo inshootlari joylashtirilgan. Bu esa shahar hayotining markazlashgan va tartibli shaklda tashkil etilganini ko‘rsatadi.

Shohrux davrida me‘morchilik va shaharsozlik ishlari Hirotida keng davom ettirildi. Hirot XV asrda Sharqning yirik madaniy markaziga aylandi. Bu yerda madrasalar, masjidlar, maqbaralar va saroylar barpo etildi. Ayniqsa, Husayn Boyqaro davrida Hirot yanada obodlashdi. Me‘moriy inshootlar nafaqat hajmi, balki bezaklari bilan ham ajralib turardi. Sirlangan koshinlar, muqarnasli gumbazlar, nozik naqshlar va arabiy yozuvlar Temuriylar uslubining ajralmas qismi bo‘ldi.

Temuriylar me‘morchiligida geometrik mutanosiblikka katta e‘tibor berilgan. Gumbaz va peshtoq balandligi, inshootning kengligi va ichki hajmi aniq hisob-kitob asosida qurilgan. Bu yerda matematika va me‘morchilik uyg‘unlashganini ko‘ramiz. Ulug‘bek davrida qurilgan Samarqand madrasasi va

rasadxona inshootlari ham me'moriy jihatdan puxta rejalashtirilgan. Rasadxona qurilishida ham astronomik kuzatuvlar uchun qulay sharoit yaratilgan bo'lib, bu inshoot ilmiy ehtiyoj bilan me'moriy san'atning uyg'unlashgan namunasi edi.

Temuriylar davrida bog'lar barpo etish ham shaharsozlikning muhim qismi bo'lgan. Samarqand atrofida Amir Temur tomonidan ko'plab bog'lar qurdirilgan, ular orasida Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Behisht kabi nomlar manbalarda uchraydi. Bu bog'lar dam olish, marosimlar o'tkazish va mehmonlarni qabul qilish joyi bo'lib xizmat qilgan. Bog'sozlik san'ati Eron va Markaziy Osiyo an'alariga tayangan holda rivojlangan va keyinchalik Boburiylar davrida Hindistonda ham davom ettirilgan.

Me'morchilik faqat diniy va saroy inshootlari bilan cheklanmagan. Karvonsaroylar, ko'priklar, hammomlar va bozorlarga ham alohida e'tibor berilgan. Bu inshootlar shahar iqtisodiy hayotining rivojlanishiga xizmat qilgan. Masalan, savdo rastalarining usti yopiq qilib qurilishi iqlim sharoitidan himoya qilishga mo'ljallangan edi. Hammomlar esa shahar aholisi uchun ijtimoiy hayot markazi vazifasini bajargan.

Temuriylar me'morchiligi keyingi asrlarda ham o'z ta'sirini saqlab qoldi. Bu uslub nafaqat Movarounnahrda, balki Eron, Afg'oniston va Hindistonda ham tarqaldi. Boburiylar davrida qurilgan ayrim inshootlarda Temuriylar me'morchilik an'analari yaqqol seziladi. Demak, bu davr me'morchiligi mintaqaviy emas, balki keng hududga ta'sir ko'rsatgan tarixiy hodisa bo'lgan.

O'zbekiston tarixi ming yillik sivilizatsiya va madaniyatlar chorrahasida shakllangan bo'lib, uning eng porloq sahifalaridan biri bu — Temuriylar sulolasi davridir. XIV asr oxiri va XV asr davomida Movarounnahrda yuz bergan madaniy uyg'onish jarayoni nafaqat o'z zamonasi, balki keyingi asrlar taraqqiyotiga ham chuqur ta'sir ko'rsatgan. Amir Temur o'zining "Kuch adolatdadir" shiori asosida markazlashgan, mustahkam davlat tizimini barpo etdi. U ilm-fan, adabiyot va san'atni davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida

qaradi. Temurning “Har bir mamlakatning qudrati – uning ilmi va madaniyatli kishilaridadir” degan fikri, shubhasiz, bu siyosatning g‘oyaviy asosini tashkil etgan.⁸

Temurdan keyingi davrda, xususan, Mirzo Ulug‘bek, Shohrux Mirzo, Boysung‘ur Mirzo kabi hukmdorlar ham ilm-fan va san‘atni rivojlantirishda katta homiylik ko‘rsatdilar. Ularning davrida Samarqand, Buxoro, Hirot kabi shaharlarda madrasalar, rasadxona va kutubxonalar qad ko‘tardi.

Tarixchi olim V. V. Bartold bu davr haqida shunday yozgan:

“Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida faqat siyosiy qudrat davri emas, balki butun Sharq uyg‘onishining eng yuksak bosqichini ifoda etadi.”⁹

Shuningdek, san‘atshunos G. A. Pugachenkova o‘z tadqiqotlarida Temuriylar davrida yaratilgan me‘moriy obidalar haqida shunday deydi:

“Bu inshootlar nafaqat diniy ramz, balki ilmiy tafakkur, estetik qarash va badiiy didning uyg‘unligidir.”¹⁰ Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ham o‘zining “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asarida ta’kidlaganidek:

“Temuriylar davri biz uchun faqat o‘tmish sahifasi emas, balki bugungi avlodni buyuklikka chorlovchi ma’naviy zamin, o‘zligimizning ildizidir.”

Shunday qilib, Temuriylar sulolasi davri nafaqat siyosiy kuch-qudratning, balki ma’naviyat va tafakkurning ham yuksak cho‘qqisiga chiqqan davr sifatida

⁸ Zokirovna, S. N. (2025). TEMURIYLAR SULOLASINING MADANIY SIYOSATI. SANOAT VA TEXNIKA SOHALARIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING NATIJALARI: KONFERENSIYA MATERIALLARI, 1(3), 169-173.

⁹ Murodulloyevich, N. O. (2025). TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN RIVOJLANISHIGA HISSA QOShGAN ALLOMALARNING AHAMIYATI. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 45(4), 197-199.

¹⁰ Esonaliyevna, N. D. (2024). TEMURIYLAR DAVRI RENESSANSI: ILM-FAN, MADANIYAT VA SAN‘AT RIVOJI. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 2(24), 26-29.

tarixda o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.¹¹ Bu davrda ilm-fan, adabiyot va me‘morchilik sohalari o‘zaro uyg‘unlashib, O‘rta Osiyoni dunyoning eng yuksak madaniy markazlaridan biriga aylantirdi. Quyida ushbu uch sohaning gullab-yashnash jarayoni batafsil tahlil qilinadi. Temuriylar davrida ilm-fan jadal rivojlanish bosqichiga kirdi. Ayniqsa, astronomiya, matematika, geometriya, tarix, falsafa va tibbiyot kabi fanlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davrning eng yirik allomalaridan biri, shubhasiz, Mirzo Ulug‘bek edi. U Amir Temurning nabirasi bo‘lib, nafaqat davlat arbobi, balki buyuk olim sifatida ham nom qozongan. Uning tashabbusi bilan Samarqandda “Ulug‘bek madrasasi” va “Ulug‘bek rasadxonasi” barpo etildi. Bu rasadxona o‘sha davr uchun eng mukammal ilmiy markaz bo‘lib, unda aniqlik darajasi jihatidan zamonasidan ancha oldinda bo‘lgan astronomik asboblarni o‘rnatilgan edi. Mirzo Ulug‘bekning eng mashhur asari — “Ziji Jadidi Ko‘ragoniy” — o‘z davrida dunyodagi eng aniq astronomik jadval hisoblangan. Ushbu asarda yulduzlar, sayyoralarni, ularning harakati va joylashuvi haqida batafsil ma‘lumotlar berilgan. Bu asar keyinchalik Yevropa ilmiy doiralariga ham ta’sir ko‘rsatgan.

Bundan tashqari, Qozizoda Rumiyni, G‘iyosiddin Jamshid Koshiyni, Ali Qushchi kabi olimlar matematika va astronomiya sohasida muhim tadqiqotlar olib borganlar. Ularning ishlari nafaqat ilmiy, balki didaktik ahamiyatga ega bo‘lgan. Shu sababli, Temuriylar davrini nafaqat siyosiy yoki madaniy yuksalish, balki ilmiy uyg‘onish davri deb atash mumkin. Quyidagi jadvalda Temuriylar davrida ilm-fan rivojiga hissa qo‘shgan ba’zi olimlar keltirilgan:

№	Olim nomi	Yashagan yillari	Asari yoki ilmiy merosi	Yo‘nalishi	Ilmiy yangiligi va ahamiyati
1	Mirzo Ulug‘bek	1394–1449	“Ziji jadidi Ko‘ragoniy”	Astronomiya, matematika	1018 ta yulduz koordinatalarini aniqladi; tropik yil

¹¹ Qodirovich, Q. F. (2025). TEMURIYLAR DAVRIDA FAN VA MADANIYAT TARAQQIYOTI. " YURT FAXRI", 1(1).

					uzunligini aniq hisoblab berdi; Samarqand rasadxonasini tashkil etdi; XV asr astronomiyasining eng mukammal jadvalini yaratdi
2	Qozizoda Rumiy	1364–1436	“Sharh Mulaxxas fil-hay’a”, “Hisob risolasi”	Matematika, astronomiya	Ulug‘bek ilmiy maktabining asoschilaridan; hisoblash va trigonometrik usullarni mukammallashtirdi; ilmiy pedagogik maktab yaratdi
3	G‘iyosiddin Jamshid Koshiy	1380–1429	“Miftah al-Hisob”, “Risola al-muhitiya”	Matematika, astronomiya	O‘nlik kasrlarni nazariy asosda qo‘lladi; π sonini yuqori aniqlikda hisoblab chiqdi; murakkab hisoblash usullarini ishlab chiqdi
4	Ali Qushchi	1403–1474	“Risola fi’l-hay’a”, “Sharh at-Tajrid”	Astronomiya, mantiq	Ulug‘bek ilmiy maktabi davomchisi; astronomiyani mustaqil fan sifatida asoslab berdi; ilmiy faoliyatini Istanbulda davom ettirib, ilmiy maktabni kengaytirdi
5	Husayn Boyqaro	1438–1506	Ilm-fan va san’at homiysi	Davlat boshqaruvi, madaniyat	Hirotni ilm-fan va adabiyot markaziga aylantirdi; olim va shoirlarga homiylik qildi; saroy atrofida yirik ilmiy-madaniy muhit shakllandi
6	Alisher	1441–	“Xamsa”,	Adabiyot,	Turkiy tilni yuksak

	Navoiy	1501	“Muhokamat ul-lug‘atayn”, devonlar	tilshunoslik	adabiy darajaga ko‘tardi; tilshunoslik va adabiyot nazariyasiga ilmiy asos berdi; ma‘naviy-axloqiy g‘oyalarni rivojlantirdi
7	Kamoliddin Behzod	1455–1536	Miniatyura asarlari	Tasviriy san‘at	Hirot miniatyura maktabini yuksak bosqichga olib chiqdi; realizm va estetik uyg‘unlikni rivojlantirdi; Sharq tasviriy san‘atining klassik namunasini yaratdi

Temuriylar davrida adabiyot san‘ati o‘zining eng go‘zal va yetuk namoyonlarini topdi. Bu davrda forsiy, arabiy va turkiy tillarda ijod qilgan shoirlar va olimlar madaniy uyg‘onish jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan edilar. Eng buyuk adib — Alisher Navoiy bo‘lib, u o‘zining ko‘p qirrali ijodi bilan butun Sharq adabiyoti tarixida inqilob yasadi. Navoiy “Xamsa” turkumidagi asarlari bilan Sharq she‘riyatidayangi badiiy yo‘nalish yaratdi. Uning asarlarida insonparvarlik, adolat, axloqiy tozalik va ma‘naviy yuksaklik g‘oyalari ilgari suriladi. Shuningdek, Navoiy o‘z asarlari orqali turkiy tilni davlat, adabiyot va ilm tili sifatida mustahkamladi. Uning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari turkiy va fors tillarining qiyosiy tahlilini bergan ilk filologik tadqiqotlardan biridir. Bu orqali u o‘zbek tili imkoniyatlarini ilmiy asosda isbotlab berdi.

Bu davrda yana Lutfiy, Jomiy, Abdurahmon Jomiy, Bobur kabi shoir va olimlar ijodi ham adabiyotda yangi bosqich yaratdi. Ayniqsa, Jomiy va Navoiy o‘rtasidagi ustoz-shogirdlik munosabatlari madaniy rishtalarning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Temuriylar davrida me‘morchilik o‘zining eng yuksak cho‘qqisiga chiqdi. Bu davrda qurilgan binolar nafaqat diniy, balki

ilmiy va madaniy markazlar sifatida ham xizmat qilgan. Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Hirot kabi shaharlar Sharq me'moriy san'atining markaziga aylangan. Amir Temur o'zining "Kuch adolatdadir" shioriga sodiq holda, davlat mustahkamligini ko'rsatish maqsadida ulkan me'moriy inshootlar barpo ettirdi. Jumladan, Bibixonim masjidi, Shohi Zinda majmuasi, Go'ri Amir maqbarasi, Ulug'bek madrasasi o'zining gumbazlari, bezaklari va rang uyg'unligi bilan butun dunyo me'morlarini lol qoldirdi. Keyinchalik Mirzo Ulug'bek, Shohruх Mirzo, Boysung'ur Mirzo davrida ham bu an'analar davom ettirilib, Hirot me'moriy maktabi shakllandi. Ayniqsa, Kamoliddin Behzod o'zining betakror miniatyura san'ati bilan bu davr madaniyatiga jahonshumul hissa qo'shgan. Behzod yaratgan tasvirlar ranglarning uyg'unligi, kompozitsiyaning mukammalligi va inson obrazlarining tabiiyligi bilan ajralib turadi.

Temuriylar davri O'zbekiston tarixida ilm, madaniyat va ma'rifatning eng yuksak cho'qqisi sifatida baholanadi. Bu davrda shakllangan ilmiy maktablar, adabiy an'analar va me'moriy uslublar bugungi kunda ham xalqimiz g'ururi va milliy merosining ajralmas qismi bo'lib qolmoqda. Amir Temur va uning avlodlari tomonidan yaratilgan siyosiy barqarorlik, Mirzo Ulug'bekning ilmiy maktabi, Alisher Navoiy ijodi hamda Kamoliddin Behzod san'ati O'zbekiston tarixining oltin sahifalarini bezaydi. Ularning faoliyati nafaqat o'tmish faxrimiz, balki bugungi yoshlar uchun ibrat manbaidir. Shunday ekan, Temuriylar sulolasining ma'naviy va madaniy merosini o'rganish, uni yosh avlod ongiga singdirish O'zbekistonning madaniy siyosatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu meros bizni kelajakda ham ma'naviy yuksaklik va milliy birlik sari yetaklaydi.¹²

¹² Aymurzaev Axmed Jolmurzaevich. Temuriylar sulolasi davrida ilm-fan, adabiyot va me'morchilikning gullab-yashnashi // Central Asian Journal of Academic Research. – 2025. – Vol. 3. – Issue 10. – Part 4 (October). – B. 108–110. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17499846>

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davrida me'morchilik va shaharsozlik san'ati davlat siyosati bilan uyg'un holda rivojlandi. Samarqand va Hirot kabi shaharlar obod qilindi, muhtasham masjidlar, maqbaralar, madrasalar va saroylar barpo etildi. Shaharlar aniq reja asosida kengaytirildi, infratuzilma takomillashtirildi, savdo va hunarmandchilik rivoji uchun qulay sharoit yaratildi. Bu jarayon Temuriylar davrining nafaqat siyosiy, balki madaniy yuksalish davri bo'lganini ko'rsatadi.

4.2. Tasviriy san'at va miniatyura maktabi.

Bugungi kunimizning dolzarb muammolaridan biri tarixda yashagan buyuk allomalarimizning ijod yo'lini mukammal o'rganmay turib, ijodkorlikka qo'l urish va bunday qilayotgan ijodkorlar shaxslar talaygina. Ayniqsa musiqa va rassomchilik sohasida bu jarayon yaqqol ko'zga tashlanadi.

“Temur dunyoga kelgan yurtda falsafa, tibbiyot, matematika, astronomiya, geografiya, tarix, adabiyot sohalarida olamshumul asarlar yaratildi. Bu asarlar keyinchalik Yevropa uyg'onish davriga turtki bo'ldi va Yevropa fanining uzoq asrlar davomida taraqqiyotiga asos bo'lib xizmat qildi. O'n beshinchi asrni Temuriylar Renesansi davri deb atash mumkin”, – deb yozadi Sohibqiron shaxsiyatining hozirgi zamon angliyalik tadqiqotchisi Xilda Xukxem. Haqiqatdan ham Amir Temur va temuriylarning bevosita amaliy sa'y-harakati va rahnamoligi tufayli mamlakatda fan, madaniyat, san'atning ko'p sohaları gurkirab taraqqiy topdi. Sulola vakillarining homiyligi ostida quyidagi to'rt yo'nalishda to'rt maktab yuzaga keldiki, ularning har birida samarali ijod mahsullari yaratilib, o'z davri uchun ham, bugungi kungacha ham ilm-fan sohasida qo'llanma vazifasini o'tamoqda:

- Astronomiya maktabi – Mirzo Ulug'bek rahnamoligida tashkil etilgan va o'ziga xos akademiyaga aylangan. Bu yerda shunday astronomik jadvallar tuzildiki, bizning zamonamizgacha deyarli bir darajada barqaror bo'lgan ilmiy ahamiyatini saqlab kelmoqda.

- Badiiy adabiyot maktabi – Alisher Navoiy hazratlarining tashabbusi bilan asos solingan. Navoiy juda serqirra ijodkor ekanligini shunday namoyon qildiki, bugungi kunda u kishining asarlari dunyoning bir qancha tillariga tarjima qilindi va qilinmoqda, fan olamida Navoiyshunoslik yo'nalishi vujudga keldi, haykallari 10 dan ortiq davlatlarda tiklandi.

- Musiqa maktabi – Abdulqodir Marog‘iyning noyob qobiliyati ila tashkil topgan. U kishi yaratgan musiqalar o‘z davridan keyin butun musulmon olami musiqasi ravnaqining g‘oyat muhim omili bo‘lib xizmat etdi.

- Miniatura maktabi – Kamoliddin Behzod tomonidan yaratildi hamda o‘z davrining mashhur akademiyasiga aylanib, bir qancha ijodkorlarni yetishtirib chiqara oldi.

Astronomiya va badiiy adabiyot maktablari haqida ko‘pgina asarlar, ilmiy maqolalar, sahna asarlari ham yaratildiki, bu haqida ko‘pchiligimiz xabardormiz. Ammo, temuriylar davrining musiqa va tasviriy san‘at maktablari haqida ko‘pchilik adabiyotlarda qisqacha tushunchalar berib o‘tilgan. Vaholanki bu maktablar ham o‘ziga xos ilmiy va badiiy meros qoldira olgan.

Temuriylar davri musiqa maktabi asoschisi Abdulqodir Marog‘iy bir qancha vaqt Bag‘dodda Sulton Ahmad saroyida xizmat qiladi. Bu shahar temuriylar davlati tarkibiga kiritilganidan keyin Marog‘iy poytaxt Samarqandga kelib, Sohibqironning saroyida xizmat qiladi. Keyinchalik esa Hirotda Amir Temurning o‘g‘li Shohruh saroyida ham bir qancha vaqt xizmatda bo‘ladi. Forobiy, Ibn Sino, Sayfuddin Abdul Mo‘min Urmaviy va boshqalarning Sharq musiqasiga doir asarlarini qunt bilan o‘rganadi. O‘zining egallagan bilimlari asosida XIV-XV asrlar Sharq musiqasi nazariy muammolariga bag‘ishlangan asarlar yaratadi. Marog‘iyning ma‘naviy merosi faqat Markaziy Osiyo va Xuroson musiqasining nazariy muammolarini hal etish bilangina chegaralanmagan bo‘lib, o‘ta noyob qobiliyat egasi ekanligini bastakor sifatida yaratgan musiqalaridan fahmlash mushkul emas. Uning Iroq maqomi yo‘li bilan ijro etiladigan “Peshravi dor” va “Amali tarona” kabi asarlari xalq ichida nihoyatda ommalashib ketib, bugungi kunda ham kuylanib, o‘lmas merosekanligini isbotlayapti. Marog‘iy ijodining noyoblighi shundaki, u dastlab Bog‘dodda yashadi va arab, fors, ozarbayjon xalqlari musiqasini puxta

o'rgandi. Keyin esa Samarqand va Hirotida yashab, Markaziy Osiyo musiqasini ham qunt bilan o'rgandi.

Ijod mahsullarida esa Markaziy Osiyo va O'rta Sharq musiqalarini birlashtirgan holatda yarata oldi va yangi bir ohanglar musiqa olamiga yaratilishiga sabab bo'ldi. Marog'iy ijodini o'rganish davr talabi deb o'ylayman. Chunki bugungi kunda moddiy boylik istab musiqa san'ati bilan shug'ullanib kelayotgan bir qancha havaskor xonandalar avvalo musiqa tarixiga nazar solishlari, marog'iy singari qunt bilan o'rgamoqliklari ularni san'at olamida boqiy musiqalar yaratishlariga asos bo'lib xizmat qiladi.

Sharqning buyuk musavviri Kamoliddin Behzod boshchiligidagi tasviriy san'at maktabi o'z davri ma'naviyatidamda mafkurasining taraqqiyotiga kuchli ta'sir o'tkaza olgan. Behzodning yashagan davri temuriyzoda Husayn Boyqaro, Shayboniylar davri, Eronda hukmronlik qilgan Ismoil Safaviy va Tahmasplarga to'g'ri keladi. O'rta asrlarning san'at olamida Hirot hamda Tabriz rassomchilik maktablarining yaratilishi Behzod nomi bilan bevosita bo'g'liq. Bu ijodkor asosan miniatura va portret ustasi sifatida keng tanilgan. Husayn Boyqaro, Muhammad Shayboniyxon, Alisher Navoiy portlarini chizdi va bizning davrimizga bu noyob san'at durdonalari yetib kelgan bo'lib o'z ahamiyatini va rang barangligini yo'qotmagan. Hukmdorlarning qabul marosimlari, jang maydonidagi manzaralar, turli tarixiy voqealar haqqoniy vat a'sirli qilib tasvirlanganki, biz bu tasvirlarni sinchiklab kuzatganimizda o'sha davr kishilarining ichki kechinmalari, tashqi ko'rinishi, kiyimlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'la olamiz. Behzod noyob qobiliyat egasi bo'lganligi uchun unga "Moniy Soniy" va keyingi san'atshunos olimlar tomonidan "Sharq Rafaeli" nomlari berilgan. Husayn Boyqaroning davlat kutubxonasida rahbarlik qilgan davrida Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asariga jang jarayonlarini shunday mahorat bilan tasvirlaganki, uni tomosha qilgan inshon jang maydonidagi so'z bilan ifoda etilmaydigan holatlar haqida ma'lumotga ega

bo'la oladi. Xotifiyning "Temurnoma" asariga va Sa'diyning "Bo'ston" asarigaham miniaturalarni mohirona qilib yaratgan. O'ziga homiylik qilgan, ustoz deb bilgan Alisher Navoiyning ham asarlariga bir qancha miniaturalar chizdi. Behzodning an'analari keyingi davr rassomlari ijodiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Uning ijodi va merosi san'atshunoslar, rassomlar tomonidan keng o'rganilishi shart va zarur deb o'ylayman.

Insonga ma'naviy ozuqa beradigan musiqa va tasviriylar san'at namunalarini yaratish har qanday insonga xos fazilat hisoblanmaydi. Bunday noyob namunalar yaratgan shaxslar o'ta kuchli iqtidor va noyob xislatlarga ega bo'lib, o'zi qiziqqan bilimlarni qunt bilan o'rganganlar va keyin egallagan bilimlari asosida yangi ijod mahsullarini yaratganlar. Bugungi kunda dolzarb muammolardan biri yaratilayotgan musiqa va rassomchilik namunalari negadir umrboqiy emas. Tarixda yashagan ota-bobolarimizning izlaridan mukammal yurish vaqti kelmadimikan, ularning hayoti, ijod yo'lini mukammal o'rganish soha vakillariga majburiy mashg'ulotga aylanishi kerak emasmi? Xuddi shunday savolni har-bir kasb-hunar egasi o'ziga berib ko'rishini va qat'iy amal qilishini istardim. Toki Kamoliddin Behzod singari dunyo tan olgan, o'lmas asarlar yarata olish kuchiga ega bo'lgan ijodkorlar dunyoga kelsin.

Temuriylar davrida tasviriylar san'at, ayniqsa kitob bezagi va miniatyura san'ati nihoyatda yuksak darajaga ko'tarildi va bu jarayon bevosita davlat homiyligi, saroy madaniyati hamda ilmiy-adabiy muhitning rivoji bilan bog'liq holda shakllandi. XIV asr oxiri va XV asr davomida Samarqand va Hirot nafaqat siyosiy va ilmiy markaz, balki san'at va estetik tafakkur o'chog'iga aylandi. Bu davr tasviriylar san'ati o'zidan oldingi Eron va Movarounnahr an'alarini davom ettirgan holda, yangi uslub va badiiy ifoda shaklini yaratdi.

Temur davridayoq saroyda naqqoshlar, xattotlar, musavvirlar va kitob bezak ustalari faoliyat yuritgan. Harbiy yurishlar davomida turli hududlardan san'atkorlar Samarqandga olib kelingan, natijada turli maktab va uslublar bir joyda jamlangan.

Bu jarayon miniatyura san'atining yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratdi. Miniatyura asosan qo'lyozma kitoblarni bezash maqsadida ishlatilgan bo'lib, unda tarixiy voqealar, jang manzaralari, saroy hayoti, tabiat tasviri va adabiy asarlardagi voqealar tasvirlangan. Shohrux davrida va ayniqsa uning o'g'li Boysunqur Mirzo homiyligida kitob san'ati va miniatyura yanada rivojlandi. Hirotda Boysunqur kutubxonasi tashkil etildi va u o'z davrining eng boy qo'lyozma markazlaridan biriga aylandi. Bu yerda qo'lyozmalar ko'chirilgan, tahrir qilingan va nafis miniatyuralar bilan bezatilgan. Boysunqur Mirzo "Shohnoma"ning muhtasham nusxasini tayyorlatgan bo'lib, undagi miniatyuralar Temuriylar davri tasviriylar san'atining yorqin namunasi hisoblanadi. Bu asarlarda ranglarning uyg'unligi, kompozitsiyaning aniqligi va inson qiyofasining ifodaviyligi yaqqol seziladi.

Temuriylar davrida miniatyura san'ati ayniqsa Husayn Boyqaro davrida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Bu davrda Hirotda buyuk rassom Kamoliddin Behzod faoliyat yuritgan. Behzod nafaqat o'z davrining, balki butun Sharq tasviriylar san'ati tarixining eng yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi. U yaratgan miniatyuralarda inson obrazlari jonli va ifodali tasvirlangan, sahna kompozitsiyasi chuqur o'ylangan va ranglar o'zaro uyg'un holda ishlatilgan. Behzod asarlarida saroy hayoti, oddiy xalq turmushi, me'moriy inshootlar va tabiat manzaralari bir butun badiiy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Miniatyura maktabi faqat rassomlik bilan cheklanib qolmagan, u xattotlik va kitob bezagi bilan chambarchas bog'liq edi. Temuriylar davrida xattotlik san'ati ham yuqori darajaga ko'tarildi. Nasta'liq yozuvi aynan shu davrda mukammal shaklga keldi. Qo'lyozmalar bezagi, sahifa hoshiyalarining oltin suvi bilan ishlanishi, geometrik va islmiy naqshlar bilan boyitilishi kitobni nafaqat bilim manbai, balki san'at asariga aylantirdi. Shuning uchun Temuriylar davri qo'lyozmalari bugungi kunda ham jahon muzeylarida qimmatli san'at namunasi sifatida saqlanmoqda.

Temuriylar miniatyura maktabining yana bir muhim xususiyati – realizmga intilishdir. Oldingi davrlarda tasvirlar ko'proq ramziy va soddalashtirilgan bo'lsa,

bu davr rassomlari inson qiyofasini, kiyim-kechak tafsilotlarini, me'moriy elementlarni aniqroq va hayotga yaqinroq tasvirlashga harakat qilganlar. Masalan, jang sahnalarida askarlarning harakati, yuz ifodalari, qurol-aslaha detallariga e'tibor berilgan. Saroy hayoti tasvirlangan sahnalarda esa kiyimlar, gilamlar, mebel va interyer tafsilotlari puxta aks ettirilgan.

Tabiat manzaralarini tasvirlash ham Temuriylar miniatyurasida muhim o'rin egallaydi. Daraxtlar, tog'lar, suv manbalari, bog'lar va gullar kompozitsiyaning ajralmas qismiga aylangan. Bu tasvirlar shunchaki fon emas, balki voqeaning ruhiy holatini ifodalovchi element sifatida ishlatilgan. Rang tanlashda ko'k, yashil, qizil va oltin ranglarning uyg'unligi ustuvor bo'lgan. Bu ranglar bir-birini to'ldirgan holda sahnaga jonlilik va chuqurlik bergan.

Temuriylar davrida tasviriy san'atning rivojlanishi faqat saroy bilan cheklanmagan. Miniatura maktabi asta-sekin boshqa hududlarga ham tarqalgan. Behzod va uning shogirdlari uslubi Eron va keyinchalik Hindistonda Boburiylar davrida ham davom ettirildi. Bu esa Temuriylar tasviriy san'ati mintaqaviy hodisa emas, balki keng ta'sir doirasiga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davrida tasviriy san'at va miniatura maktabi davlat homiyligi, boy adabiy muhit va yuqori badiiy did asosida rivojlandi. Samarqand va Hirot bu san'atning markazlariga aylandi, Boysunqur kutubxonasi va Husayn Boyqaro saroyi esa ijodkorlar uchun keng imkoniyat yaratdi. Kamoliddin Behzod va boshqa rassomlar yaratgan asarlar nafaqat o'z davrining, balki butun Sharq san'ati tarixining bebaho merosi sifatida qadrlanadi. Shu sababli Temuriylar davri tasviriy san'ati Sharq uyg'unishining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

4.3. Amaliy san'at va hunarmandchilik.

Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida nafaqat siyosiy va harbiy qudrat, balki amaliy san'at va hunarmandchilikning yuksak darajada rivojlangan bosqichi sifatida alohida o'rin tutadi. Bu davrda shahar hayoti, ishlab chiqarish madaniyati va hunarmandchilik an'analari yangicha mazmun kasb etib, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning asosiy omillaridan biriga aylandi. Ayniqsa, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Termiz kabi shaharlarda hunarmandchilik tarmoqlari qayta tiklanib, ayrim sohalar esa mutlaqo yangi bosqichga ko'tarildi.

Ma'lumki, mo'g'ullar istilosi davrida ko'plab shaharlar vayron bo'lgan, hunarmandchilik ustaxonalari izdan chiqqan va savdo yo'llari xavfsizligi buzilgan edi. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgach, eng avvalo mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, hunarmandlar va savdogarlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash siyosatini yuritdi. U yaxshi tushungan edi: kuchli davlat faqat qurol bilan emas, balki rivojlangan iqtisodiyot va hunarmandchilik bilan mustahkam bo'ladi. Shu sababli yo'llar, ko'priklar, rabotlar, karvonsaroylar barpo etildi, savdo karvonlari himoyaga olindi, hunarmandlarga sharoit yaratildi. Natijada shaharlar yana jonlanib, ustaxonalar faoliyati tiklandi.

Temuriylar davrida amaliy san'atning eng rivojlangan yo'nalishlaridan biri to'qimachilik bo'ldi. Buxoro vohasi qadimdan ipak va paxta matolari bilan mashhur bo'lgan. Zarboft, zandanicha, karpas kabi matolar Sharq va G'arb bozorlarida qadrlangan. Bu matolar nafaqat mahalliy ehtiyojni qondirgan, balki xalqaro savdoda ham muhim o'rin egallagan. Ayrim manbalarda Yevropa hududlarida ham buxorolik matolarga talab yuqori bo'lgani qayd etiladi. Bu esa Temuriylar davrida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifat jihatidan yuqori darajada bo'lganini ko'rsatadi.

Ayniqsa, zandanicha matosi o'zining nafisligi va mustahkamligi bilan ajralib turgan. Bu mato oddiy xalq uchun qimmat bo'lgani, ko'proq badavlat qatlam tomonidan xarid qilingani haqida tarixiy dalillar mavjud. Bundan ko'rinadiki,

hunarmandchilik mahsulotlari ijtimoiy tabaqalanishda ham muayyan rol o'ynagan. Buxoro atrofidagi Olachabofon qishlog'i esa olacha matosi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan maskan sifatida tanilgan bo'lib, bu yerda yetishgan ustalar o'z davrining mashhur hunarmandlari bo'lgan.

Kiyim-kechak tikish san'ati ham Temuriylar davrida yuksalgan. Buxoroda tikilgan kiyimlar nafaqat Movarounnahr hududida, balki Xuroson va Hirot kabi madaniy markazlarda ham urf bo'lgan. Bu esa hunarmandchilikning mintaqaviy chegaradan chiqib, keng hududga tarqalganini ko'rsatadi. Amaliy san'atda milliy bezak, rang tanlash, naqsh solish uslublari shakllanib, keyingi asrlarga meros bo'lib qoldi.

Sopolsozlik ham Temuriylar davrida rivojlangan muhim tarmoqlardan biri edi. Samarqand kulolchilik maktabi yetakchi bo'lgan bo'lsa-da, Buxoro va boshqa shaharlarda ham o'ziga xos uslublar shakllangan. Bu davr idishlari monoxrom va polixrom uslubda tayyorlangan bo'lib, kobalt ko'k, jigarrang va havorang bo'yoqlardan keng foydalanilgan. Sopol buyumlar nafaqat maishiy ehtiyoj uchun, balki estetik didni ifodalovchi san'at namunasi sifatida ham qadrlangan. Arxeologik qazishmalar natijasida Buxoro hududidan topilgan sirlangan idishlar o'sha davr kulolchilik madaniyatining yuksak darajasini tasdiqlaydi.

Temuriylar davrida hunarmandlar nafaqat ishlab chiqaruvchi, balki ijtimoiy hayotda faol qatnashuvchi qatlam bo'lgan. XIV asrda hunarmandlar o'zaro birodarlik uyushmalari, ya'ni "axiy" tashkilotlariga birlashgani ma'lum. Bu uyushmalar mehnatni tartibga solish, o'zaro yordam ko'rsatish, ustalar sha'nini himoya qilish bilan birga, siyosiy jarayonlarga ham ma'lum darajada ta'sir o'tkazgan. Keyinchalik aynan shu qatlam Amir Temurning iqtisodiy tayanchiga aylangan.

Savdo yo'llarining tiklanishi hunarmandchilik rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Buyuk Ipak yo'li bo'ylab harakat xavfsizligi ta'minlangach, Buxoro va Samarqand nafaqat yirik savdo markazlariga, balki ishlab chiqarish markazlariga

ham aylandi. Kichik shahar va qishloqlar ham umumiy savdo tizimiga jalb qilinib, hunarmandchilik tarmoqlari kengaydi. Savdogarlarning sarmoyasi xavf ostida qolgan taqdirda, davlat tomonidan yordam berilgani esa iqtisodiy siyosatning uzoqni ko'zlaganini ko'rsatadi.

Temuriylar davrida amaliy san'at faqat iqtisodiy hodisa emas, balki madaniy uyg'onishning bir ko'rinishi edi. Har bir buyumda estetik did, rang uyg'unligi, naqsh kompozitsiyasi va ma'naviy mazmun mujassam edi. Hunarmandchilik orqali xalqning dunyoqarashi, diniy qarashlari va urf-odatlar ham ifoda etilgan. Shu bois Temuriylar davri amaliy san'ati Sharq Uyg'onishining muhim tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

Temuriylar davrida amaliy san'at va hunarmandchilik mamlakat iqtisodiyotining tayanch ustuniga aylangan, shaharlar ravnaq topgan, xalqaro savdo kengaygan va milliy san'at maktablari shakllangan. Bu davrda yaratilgan matolar, sopol buyumlar, kiyim-kechaklar va boshqa hunarmandchilik mahsulotlari bugungi kunda ham tarixiy va madaniy meros sifatida qadrlanadi. Temuriylar davrining amaliy san'ati nafaqat o'z zamonasining ehtiyojini qondirgan, balki keyingi asrlar uchun ham mustahkam madaniy poydevor yaratgan.

Temuriylar davrida amaliy san'at va hunarmandchilik jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, u nafaqat iqtisodiy sohani, balki madaniy muhitni ham boyitgan muhim omillardan biri edi. XIV asr oxiri va XV asr davomida Movarounnahr hamda Xuroson hududlarida siyosiy barqarorlikning tiklanishi, shaharlarning qayta obod qilinishi va savdo yo'llarining xavfsizligi ta'minlanishi hunarmandchilikning keng rivojlanishiga zamin yaratdi. Amir Temur va uning avlodlari tomonidan olib borilgan bunyodkorlik siyosati natijasida yangi masjidlar, madrasalar, maqbaralar, saroylar va bozorlar qurildi, bu esa hunarmandlar uchun keng ish maydoni ochdi. Shu tariqa amaliy san'at turlari davlat buyurtmalari va shahar hayotining ehtiyojlari bilan uyg'un holda rivojlandi.

Kulolchilik Temuriylar davrida eng keng tarqalgan hunarmandchilik sohalaridan biri bo'lgan. Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va Hirot shaharlarida kulollar yuqori sifatli sopol buyumlar, idish-tovoqlar, bezakli plitalar va koshinlar ishlab chiqarganlar. Ayniqsa, sirlangan koshinlar me'moriy inshootlarning tashqi va ichki bezagida keng qo'llanilgan. Bibixonim masjidi, Shohizinda majmuasi va Hirotidagi madrasalar devorlarida ishlatilgan ko'k, oq va firuza rangli koshinlar o'sha davr kulolchilik san'atining yuksak darajasini ko'rsatadi. Bu buyumlar nafaqat mustahkamligi, balki estetik ko'rinishi bilan ham ajralib turardi.

Zargarlik san'ati ham Temuriylar davrida rivoj topgan. Oltin va kumushdan yasalgan taqinchoqlar, uzuklar, marjonlar, kamarlar va bezak buyumlari yuqori did bilan ishlangan. Zargarlar qimmatbaho toshlardan foydalanib, nozik naqshlar bilan bezatilgan buyumlar yaratganlar. Bu buyumlar asosan saroy ahliga va boy savdogarlarga mo'ljallangan bo'lsa-da, hunarmandchilik mahsulotlari savdo orqali boshqa hududlarga ham tarqalgan. Zargarlik mahsulotlari nafaqat bezak, balki ijtimoiy mavqe belgisi sifatida ham qadrlangan.

Temuriylar davrida to'qimachilik va gilamdo'zlik ham muhim o'rin tutgan. Movarounnahr va Xuroson hududlarida ipak, jun va paxtadan turli matolar to'qilgan. Samarqand va Hirot bozorlari ipak matolar va bezakli kiyim-kechaklar bilan mashhur bo'lgan. Gilamdo'zlik san'atida esa murakkab geometrik va o'simliksimon naqshlar ishlatilgan. Gilamlar saroy va boy uylarda keng qo'llanilgan, ular nafaqat maishiy buyum, balki san'at asari sifatida ham qadrlangan. Rang tanlash va naqsh uyg'unligi hunarmandlarning yuqori estetik didga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Metallga ishlov berish hunarmandchiligi ham rivojlangan sohalardan biri edi. Temir, bronza va misdan turli maishiy buyumlar, qurol-aslaha, idishlar va bezak elementlari tayyorlangan. Harbiy yurishlar davrida qurolsozlik alohida ahamiyat kasb etgan, qilich, nayza, sovut va dubulg'alar yuqori sifat bilan ishlab chiqarilgan. Shu bilan birga, metall buyumlar ustiga naqsh tushirish, yozuv bitish va bezash

san'ati ham keng qo'llanilgan. Bu buyumlar hunarmandchilikning nafaqat amaliy, balki badiiy tomonini ham namoyon etadi.

Yog'och o'ymakorligi Temuriylar davrida masjid eshiklari, ustunlar, minbarlar va uy jihozlarini bezashda keng qo'llanilgan. O'ymakor ustalar yog'och yuzasiga murakkab islamiy va geometrik naqshlar tushirganlar. Bu bezaklar o'zining aniqligi va nafisligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, masjid va madrasalardagi yog'och eshiklar va minbarlar san'at asari darajasida bajarilgan.

Temuriylar davrida hunarmandchilik ustaxonalar shaklida tashkil etilgan bo'lib, har bir hunar turi bo'yicha mahoratli ustalar va shogirdlar ishlagan. Ustoz-shogird an'anasi orqali tajriba avloddan avlodga o'tgan. Hunarmandlar o'z mahsulotlarini bozorlarda sotgan yoki davlat buyurtmalarini bajargan. Savdo yo'llarining tiklanishi hunarmandchilik mahsulotlarining boshqa mamlakatlarga eksport qilinishiga imkon yaratgan. Bu esa Temuriylar davrida iqtisodiy hayotning jonlanganini ko'rsatadi.

Hiroat va Samarqandda amaliy san'at turlari bir-biri bilan uyg'un holda rivojlangan. Masalan, kitob bezagi uchun miniatyura rassomlari bilan bir qatorda, qog'oz tayyorlovchilar, muqova ustalari va zargarlik elementlari bilan shug'ullanuvchi ustalar ham faoliyat yuritgan. Shu tariqa bitta qo'lyozma asari yaratilishida bir necha hunar turlari ishtirok etgan. Bu jarayon san'atning jamoaviy mehnat asosida shakllanganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davrida amaliy san'at va hunarmandchilik siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va davlat homiyligi natijasida yuksak darajaga ko'tarildi. Kulolchilik, zargarlik, to'qimachilik, metallsozlik va yog'och o'ymakorligi kabi sohalar keng rivojlandi va shahar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Hunarmandlar yaratgan buyumlar nafaqat maishiy ehtiyojni qondirdi, balki estetik qadriyatlarni ham shakllantirdi. Shu bois Temuriylar davri amaliy san'ati Sharq madaniy merosining muhim va bebaho qismi hisoblanadi.

V-BOB. ADABIYOT, TIL VA MA'NAVIY HAYOT

5.1. Temuriylar davrida adabiy muhit

Temuriylar davriga oid tarixiy manbalar Sohibqiron Amir Temur va uning o'g'li Mironshoh atrofida doimo ijodkorlar, xususan she'riyat ahli to'planganini tasdiqlaydi. Ularning huzurida adabiy majlislar, she'riyat kechalari muntazam o'tkazilgan. Bu holat Temuriylar saroyida badiiy so'z va san'atga katta e'tibor qaratilganini ko'rsatadi. Adabiyotshunos Abduqodir Hayitmetov "Temuriylar davri o'zbek adabiyoti" nomli asarida Amir Temurning adabiyotga munosabati haqida fikr yuritish ekan, Sohibqironni nozik didli, go'zallikni chuqur anglaydigan va adabiy merosni qadrlaydigan shaxs sifatida ta'riflaydi. Unga ko'ra, Temurning badiiy ijodga bo'lgan munosabati hali to'liq va maxsus o'rganilmagan bo'lsa-da, bu masalada eng ishonchli manbalardan biri Alisher Navoiy hisoblanadi.

Alisher Navoiy o'zining "Majolis un-nafois" tazkirasida Temuriylar zamonida yashab ijod qilgan shoirlar haqida batafsil ma'lumot beradi. Navoiy ta'kidlashicha, Amir Temur she'r yozishga alohida intilmagan bo'lsa-da, nazm va nasrni chuqur tushungan, ularni o'z o'rnida va o'z vaqtida keltira olgan. Ya'ni, Sohibqiron she'r bitmagan bo'lsa ham, adabiy merosni yaxshi bilgan, ko'plab asarlarni yoddan ayta olgan va suhbatlarda o'rinli ravishda qo'llagan. U olimlar va shoirlar ishtirokidagi majlislarda she'riy parcha va hikmatli iboralarni mahorat bilan eslatib, adabiyotga bo'lgan hurmatini namoyon etgan.

Shu bilan birga, "Temur tuzuklari"da Amir Temurning Amir Husaynga yo'llagan bayti ham keltiriladi. Bu holat uning she'riy ifodadan xabardor bo'lganini va ba'zan badiiy so'z vositasida fikr bildirganini ko'rsatadi. Taniqli tarixchi A. Ahmedov ham Temurning she'riyatga bo'lgan munosabatini alohida ta'kidlab, u she'rda chuqur ijtimoiy va axloqiy mazmunni ko'ra olganini, og'ir vaziyatlarda badiiy so'zdan ruhiy madad sifatida foydalanganini qayd etadi.

Tarixiy manbalarda, jumladan "Zafarnoma"da Amir Temur nomiga mansub bir necha baytlar uchraydi. Sharqshunos V. V. Bartold ham Temur saroyida forsiy

muarrixlar bilan bir qatorda turkiy baxshilar ham faoliyat yuritganini, ular Sohibqiron tarixini she'riy yo'l bilan tasvirlaganini yozadi. Bu esa Temuriylar davrida ko'p tilli adabiy muhit shakllanganini anglatadi.

Temuriylar zamonida ko'plab shoir va adiblar yetishib chiqqan. Izzat Sultonning fikricha, Amir Temur turli hududlardan ilm va hunar egalarini o'z yurti sari jamlagan, uning avlodlari esa ana shu boy ma'naviy meros va mahalliy iste'dod asosida yuksak madaniy taraqqiyotga erishganlar. Samarqand va Hirot yangi madaniyat markaziga aylangan, viloyatlardagi bek va sultonlar saroylarida ham shoir va olimlar ijodini davom ettirganlar.

Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida Temuriylar davrida turkiy tilida ijod qiluvchi shoirlar paydo bo'lganini qayd etadi. U Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Yaqiniy, Amiriy, Gadoiy kabi shoirlarni tilga olib, ularning faoliyatini e'tirof etadi. Shu bilan birga, u forsiy she'riyat bilan raqobat qila olgan eng yirik turkiy shoir sifatida Mavlono Lutfiyni alohida ajratadi.

Temuriylar saroyiga yaqin bo'lgan shoirlardan biri Abdumalik Isomiy Samarqandiy bo'lgan. Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro" asarida uni ilm-fazli bilan birga yuksak she'riy iste'dod sohibi sifatida ta'riflaydi. Shuningdek, Faxriddin Mahmud (Ibn Yamin), Ubaydi Zakoniy, Imodiddin Faqih, Jamoliddin Salmon, Shamsiddin Nafiz, Kamoliddin ibn Mas'ud kabi shoirlar ham Sohibqiron homiyligida ijod qilganlar.

Ibn Arabshoh ma'lumotlariga ko'ra, saroy shoiri Mavlono Ahmad ibn Shams ul Aymma turkcha, forsha va arabcha ijod qilib, "malik ul-kalom" unvoniga sazovor bo'lgan. Faxriddin Ali Safiy esa "Latoyif ut-tavoyif" asarida Amir Temur va Hofiz Sheroziy uchrashuvi haqida hikoya keltirib, saroy shoiri Sayyid Zaynul Obiddin Ruknobodiy nomini tilga oladi.

Temuriylar davrida forsiy she'riyatda Hofiz Sheroziy, Kamol Xo'jandiy, Salman Sovajiy, Ismat Buxoriy kabi mashhur ijodkorlar faoliyat ko'rsatgan. Turkiy adabiyotda esa Sayyid Nasimiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, Durbek, Sakkokiy singari

shoirlar ijod qilganlar. Ularning Sohibqiron bilan aloqalari haqida ma'lumotlar kam bo'lsa-da, ayrim tadqiqotchilar, jumladan Hakim Homidiy va Otaxon Sayfullaev, Amir Temurning Kamol Xo'jandiy hayotida muhim rol o'ynaganini ta'kidlaydilar.

Saroy shoirlaridan Lutfullo Nishopuriy Amir Temur va Mironshoh saroyida xizmat qilgan, she'riy majlislarda qatnashgan va Sohibqironga bag'ishlangan qasidalar o'qigan. "Tarixi tomm" asarida u yuksak ilm va badiiy salohiyat sohibi sifatida ta'riflanadi.

G'arb tadqiqotchisi Herman Vamberi ham Temuriylar davridagi madaniy taraqqiyotni alohida e'tirof etib, uni islom olamining eng porloq davrlaridan biri bilan qiyoslaydi. Uning fikricha, Hirot va Samarqanddagi ilm-fan va san'at rivoji boshqa ko'plab saroylar darajasidan ancha yuqori bo'lgan.

Umuman olganda, Temuriylar davrida adabiy muhitning yuksalishi bevosita hukmdorlarning homiyligi va ilm ahliga bo'lgan ehtiromi bilan bog'liq edi. Ruknobody, Isomiy, Sakkokiy kabi shoirlarning ijodi aynan shu saroy muhiti bilan chambarchas aloqador. Ularning merosini chuqur o'rganish Temuriylar davri adabiy hayotining yangi qirralarini ochishga xizmat qiladi.

Temuriylar davri adabiy muhitini tushunish uchun avvalo shu davrning siyosiy va madaniy sharoitiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi, chunki adabiyot hech qachon bo'sh joyda paydo bo'lmaydi, u har doim ma'lum tarixiy, ijtimoiy va ma'naviy muhit mahsuli sifatida shakllanadi. XIV asr oxiri va XV asr davomida Movarounnahr va Xuroson hududlarida markazlashgan davlatning barpo etilishi, shaharlarning obod qilinishi, ilm-fan va san'atga homiylik qilinishi natijasida adabiy hayot uchun nihoyatda qulay sharoit yuzaga keldi. Ayniqsa Samarqand va Hirot shaharlari adabiy muhitning asosiy markazlariga aylandi.

Amir Temur davrida adabiyot hali davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lmagan bo'lsa-da, saroy atrofida shoir va tarixchilar to'plana boshlaganini ko'ramiz. Temurning o'zi turkiy va forsiy adabiyotni qadrlagan, tarixiy asarlarning

yozilishini qo'llab-quvvatlagan. Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan yaratilgan "Zafarnoma" asarlari nafaqat tarixiy, balki adabiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu asarlarda voqealar badiiy uslubda, mubolag'ali va tasviriy ifodalar bilan bayon etilgan, bu esa tarix va adabiyotning o'zaro uyg'unlashganini ko'rsatadi.

Shohrux Mirzo davrida adabiy muhit yanada mustahkamlandi. Poytaxt Hirotga ko'chirilgach, bu shahar qisqa vaqt ichida Sharqning eng yirik madaniy markazlaridan biriga aylandi. Shohrux saroyida shoirlar, tarixchilar, xattotlar va olimlar jamlangan. Bu davrda fors-tojik tilidagi adabiyot ayniqsa ravnaq topdi. Abdurahmon Jomiy ijodi aynan shu muhitda shakllandi. Jomiy o'z davrining yirik mutafakkiri va shoiri bo'lib, uning asarlari nafaqat she'riyat, balki tasavvufiy-falsafiy tafakkurning ham yuksak namunasi hisoblanadi. "Haft avrang" kabi asarlari o'sha davr adabiy muhitining yetuk mahsuli edi.

XV asrning ikkinchi yarmida Husayn Boyqaro davrida Hirot adabiy muhitning eng gullagan markaziga aylandi. Bu davrni ko'pincha Temuriylar adabiy uyg'onishining cho'qqisi deb atashadi. Husayn Boyqaro o'zi ham adabiyotga qiziqqan, she'r yozgan va shoirlarni qo'llab-quvvatlagan hukmdor edi. Saroyda muntazam adabiy majlislar o'tkazilgan, shoirlar o'z asarlarini o'qigan, bahs-munozaralar qilgan. Bu jarayon ijodkorlar o'rtasida sog'lom raqobat va ijodiy izlanishni kuchaytirgan.

Temuriylar davridagi adabiy muhit haqida gap ketganda Alisher Navoiy nomini tilga olmaslik mumkin emas. Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki davlat arbobi sifatida ham adabiy hayotni tashkil etishda muhim rol o'ynagan. U turkiy tilning adabiy imkoniyatlarini kengaytirgan, uni yuksak badiiy til darajasiga ko'targan. "Xamsa" asari turkiy adabiyot tarixida ulkan voqea bo'ldi. Navoiy o'z asarlarida insonparvarlik, adolat, axloqiy poklik kabi g'oyalarni ilgari surdi. U shoirlarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlagan, madrasalar va kutubxonalar qurdirgan, adabiy muhitning mustahkamlanishiga hissa qo'shgan.

Temuriylar davrida adabiyot ikki asosiy tilda – forsiy va turkiy tilda rivojlandi. Forsiy adabiyot an'anaviy ravishda kuchli bo'lib kelgan bo'lsa, turkiy til XV asrda yangi bosqichga ko'tarildi. Bu jarayon milliy adabiy tafakkurning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Turkiy tilning adabiy imkoniyatlari kengayib, u davlat va saroy darajasida e'tirof etildi. Bu esa keyingi asrlarda o'zbek adabiyotining shakllanishiga zamin yaratdi.

Adabiy muhitning rivojlanishida kutubxonalar va qo'lyozma markazlari alohida o'rin tutgan. Hirot va Samarqand kutubxonalarida qo'lyozmalar ko'chirilgan, bezatilgan va tarqatilgan. Xattotlik san'ati bilan miniatyura maktabi birgalikda rivojlanib, kitobni nafaqat ma'lumot manbai, balki san'at asariga aylantirgan. Shu tariqa adabiyot, tasviriy san'at va hunarmandchilik bir-birini boyitgan.

Temuriylar davrida adabiy muhit faqat saroy doirasida emas, balki shahar madaniy hayotida ham keng yoyilgan. Shoirilar va mutafakkirlar madrasalarda dars bergan, tasavvufiy xonaqohlarda suhbatlar o'tkazgan, adabiy majlislarda qatnashgan. Bu muhit erkin fikr almashinuvi va ijodiy izlanish uchun qulay sharoit yaratgan. Natijada adabiyot nafaqat hukmdorlarni madh etish vositasi, balki jamiyat muammolarini, inson ruhiyatini va ma'naviy masalalarni yorituvchi vositaga aylandi.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davrida adabiy muhit siyosiy barqarorlik, davlat homiyligi va boy madaniy hayot asosida shakllandi. Samarqand va Hirot adabiyotning yirik markazlariga aylandi, Jomiy va Navoiy kabi buyuk shaxslar bu muhitni yuksak bosqichga olib chiqdi. Forsiy va turkiy adabiyotning uyg'un rivoji Sharq madaniyatida muhim o'rin egalladi va keyingi asrlar adabiy taraqqiyotiga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi.

5.2. Husayn Boyqaro hukmronligi davridagi adabiy yuksalish.

Temuriylar davriga oid tarixiy manbalar Sohibqiron Amir Temur va uning o'g'li Mironshoh atrofida doimo ijodkorlar, xususan she'riyat ahli to'planganini tasdiqlaydi. Ularning huzurida adabiy majlislar, she'riyat kechalari muntazam o'tkazilgan. Bu holat Temuriylar saroyida badiiy so'z va san'atga katta e'tibor qaratilganini ko'rsatadi. Adabiyotshunos Abduqodir Hayitmetov "Temuriylar davri o'zbek adabiyoti" nomli asarida Amir Temurning adabiyotga munosabati haqida fikr yuritish ekan, Sohibqironni nozik didli, go'zallikni chuqur anglaydigan va adabiy merosni qadrlaydigan shaxs sifatida ta'riflaydi. Unga ko'ra, Temurning badiiy ijodga bo'lgan munosabati hali to'liq va maxsus o'rganilmagan bo'lsa-da, bu masalada eng ishonchli manbalardan biri Alisher Navoiy hisoblanadi.

Alisher Navoiy o'zining "Majolis un-nafois" tazkirasida Temuriylar zamonida yashab ijod qilgan shoirlar haqida batafsil ma'lumot beradi. Navoiy ta'kidlashicha, Amir Temur she'r yozishga alohida intilmagan bo'lsa-da, nazm va nasrni chuqur tushungan, ularni o'z o'rnida va o'z vaqtida keltira olgan. Ya'ni, Sohibqiron she'r bitmagan bo'lsa ham, adabiy merosni yaxshi bilgan, ko'plab asarlarni yoddan ayta olgan va suhbatlarda o'rinli ravishda qo'llagan. U olimlar va shoirlar ishtirokidagi majlislarda she'riy parcha va hikmatli iboralarni mahorat bilan eslatib, adabiyotga bo'lgan hurmatini namoyon etgan.

Shu bilan birga, "Temur tuzuklari"da Amir Temurning Amir Husaynga yo'llagan bayti ham keltiriladi. Bu holat uning she'riy ifodadan xabardor bo'lganini va ba'zan badiiy so'z vositasida fikr bildirganini ko'rsatadi. Taniqli tarixchi A. Ahmedov ham Temurning she'riyatga bo'lgan munosabatini alohida ta'kidlab, u she'rda chuqur ijtimoiy va axloqiy mazmunni ko'ra olganini, og'ir vaziyatlarda badiiy so'zdan ruhiy madad sifatida foydalanganini qayd etadi.

Tarixiy manbalarda, jumladan "Zafarnoma"da Amir Temur nomiga mansub bir necha baytlar uchraydi. Sharqshunos V. V. Bartold ham Temur saroyida forsiy muarrixlar bilan bir qatorda turkiy baxshilar ham faoliyat yuritganini, ular

Sohibqiron tarixini she'riy yo'l bilan tasvirlaganini yozadi. Bu esa Temuriylar davrida ko'p tilli adabiy muhit shakllanganini anglatadi.

Temuriylar zamonida ko'plab shoir va adiblar yetishib chiqqan. Izzat Sultonning fikricha, Amir Temur turli hududlardan ilm va hunar egalarini o'z yurti sari jamlagan, uning avlodlari esa ana shu boy ma'naviy meros va mahalliy iste'dod asosida yuksak madaniy taraqqiyotga erishganlar. Samarqand va Hirot yangi madaniyat markaziga aylangan, viloyatlardagi bek va sultonlar saroylarida ham shoir va olimlar ijodini davom ettirganlar.

Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida Temuriylar davrida turkiy tilida ijod qiluvchi shoirlar paydo bo'lganini qayd etadi. U Sakkokiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Yaqiniy, Amiriy, Gadoiy kabi shoirlarni tilga olib, ularning faoliyatini e'tirof etadi. Shu bilan birga, u forsiy she'riyat bilan raqobat qila olgan eng yirik turkiy shoir sifatida Mavlono Lutfiyni alohida ajratadi.

Temuriylar saroyiga yaqin bo'lgan shoirlardan biri Abdumalik Isomiy Samarqandiy bo'lgan. Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro" asarida uni ilm-fazli bilan birga yuksak she'riy iste'dod sohibi sifatida ta'riflaydi. Shuningdek, Faxriddin Mahmud (Ibn Yamin), Ubaydi Zakoniy, Imodiddin Faqih, Jamoliddin Salmon, Shamsiddin Nafiz, Kamoliddin ibn Mas'ud kabi shoirlar ham Sohobqiron homiyligida ijod qilganlar.

Ibn Arabshoh ma'lumotlariga ko'ra, saroy shoiri Mavlono Ahmad ibn Shams ul Aymma turkcha, forsha va arabcha ijod qilib, "malik ul-kalom" unvoniga sazovor bo'lgan. Faxriddin Ali Safiy esa "Latoyif ut-tavoyif" asarida Amir Temur va Hofiz Sheroziy uchrashuvi haqida hikoya keltirib, saroy shoiri Sayyid Zaynul Obiddin Ruknobodiy nomini tilga oladi.

Temuriylar davrida forsiy she'riyatda Hofiz Sheroziy, Kamol Xo'jandiy, Salman Sovajiy, Ismat Buxoriy kabi mashhur ijodkorlar faoliyat ko'rsatgan. Turkiy adabiyotda esa Sayyid Nasimiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, Durbek, Sakkokiy singari shoirlar ijod qilganlar. Ularning Sohobqiron bilan aloqalari haqida ma'lumotlar

kam bo'lsa-da, ayrim tadqiqotchilar, jumladan Hakim Homidiy va Otaxon Sayfullaev, Amir Temurning Kamol Xo'jandiy hayotida muhim rol o'ynaganini ta'kidlaydilar.

Saroy shoirlaridan Lutfullo Nishopuriy Amir Temur va Mironshoh saroyida xizmat qilgan, she'riy majlislarda qatnashgan va Sohibqironga bag'ishlangan qasidalar o'qigan. "Tarixi tomm" asarida u yuksak ilm va badiiy salohiyat sohibi sifatida ta'riflanadi.

G'arb tadqiqotchisi Herman Vamberi ham Temuriylar davridagi madaniy taraqqiyotni alohida e'tirof etib, uni islom olamining eng porloq davrlaridan biri bilan qiyoslaydi. Uning fikricha, Hirot va Samarqanddagi ilm-fan va san'at rivoji boshqa ko'plab saroylar darajasidan ancha yuqori bo'lgan.

Umuman olganda, Temuriylar davrida adabiy muhitning yuksalishi bevosita hukmdorlarning homiyligi va ilm ahliga bo'lgan ehtiromi bilan bog'liq edi. Ruknobody, Isomiy, Sakkokiy kabi shoirlarning ijodi aynan shu saroy muhiti bilan chambarchas aloqador. Ularning merosini chuqur o'rganish Temuriylar davri adabiy hayotining yangi qirralarini ochishga xizmat qiladi.

Temuriylar davridagi adabiy muhit haqida gap ketganda bu jarayonning eng yuksak cho'qqisi Alisher Navoiy nomi bilan bevosita bog'liq ekanini alohida ta'kidlash kerak bo'ladi, chunki XV asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan bu buyuk shoir va davlat arbobi nafaqat o'z davrining, balki butun turkiy adabiyot tarixining eng yirik namoyandalaridan biri sifatida adabiy taraqqiyotga beqiyos hissa qo'shgan. Navoiy 1441-yilda Hirotida tug'ilgan bo'lib, bolalikdan ilm va adabiyot muhitida voyaga yetgan, Husayn Boyqaro bilan birga o'qigan va keyinchalik uning eng yaqin maslahatchilaridan biriga aylangan. Bu holat Navoiyga nafaqat ijodkor, balki davlat arbobi sifatida ham faoliyat yuritish imkonini bergan.

Alisher Navoiyning adabiy yuksalishdagi eng muhim xizmati shundaki, u turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini kengaytirib, uni yuksak adabiy til darajasiga olib

chiqdi. Ungacha ham turkiy tilda asarlar yozilgan, ammo forsiy adabiyot an'anasi kuchli bo'lgani sababli turkiy til ko'pincha ikkinchi darajali til sifatida qaralgan. Navoiy esa o'z ijodi bilan bu qarashni o'zgartirdi. U turkiy tilning boyligini, ifoda imkoniyatining kengligini, nozik ma'nolarni yetkazish qudratini amalda isbotladi. Uning "Muhokamat ul-lug'atayn" asari aynan shu masalaga bag'ishlangan bo'lib, unda turkiy tilning fors tilidan kam emasligi ilmiy va badiiy dalillar bilan asoslab beriladi.

Navoiyning ijodiy merosi nihoyatda keng va serqirradir. U she'riyatning deyarli barcha janrlarida ijod qilgan. Uning to'rt devoni – "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoe' ul-vasat" va "Favoyid ul-kibar" – shoirning turli yosh davrlaridagi she'rlarini o'z ichiga oladi. Bu devonlarda g'azal, qit'a, ruboiy, tuyug', masnaviy kabi janrlarda yozilgan asarlar jamlangan. G'azallarida ishq, sadoqat, insoniy fazilatlar, komillik g'oyalari ifoda etilgan bo'lsa, boshqa janrlarda ijtimoiy va axloqiy masalalar ham ko'tarilgan.

Navoiyning adabiy yuksalishdagi eng muhim asari, albatta, "Xamsa"dir. U Nizomiy Ganjaviy an'anasini davom ettirib, turkiy tilda besh doston yaratdi: "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor" va "Saddi Iskandariy". Bu dostonlarda insonparvarlik, adolat, sadoqat, fidoyilik, ilm va ma'rifatning ahamiyati kabi g'oyalar ilgari suriladi. Masalan, "Hayrat ul-abror" asarida axloqiy va ijtimoiy masalalar keng yoritilgan bo'lsa, "Farhod va Shirin"da mehnat, sadoqat va pok muhabbat ulug'lanadi. "Saddi Iskandariy" esa adolatli hukmdor timsoli orqali davlat boshqaruvi masalalarini badiiy tarzda ifoda etadi.

Alisher Navoiy nafaqat shoir, balki ma'naviy-ma'rifiy muhitni tashkil etgan shaxs sifatida ham adabiy yuksalishda muhim rol o'ynagan. U Husayn Boyqaro saroyida yuqori lavozimlarda ishlagan, ko'plab madrasalar, xonaqohlar, masjidlar va ko'priklar qurdirgan. Hirotida qurilgan xayriya muassasalari va ilmiy markazlar Navoiy homiyligida barpo etilgan. Bu maskanlar shoirlar va olimlar uchun ijodiy

muhit yaratgan. Shu tariqa u nafaqat o‘zi ijod qilgan, balki boshqa ijodkorlarning ham rivojlanishiga sharoit yaratgan.

Navoiy adabiy muhitni yanada boyitgan asarlardan biri “Majolis un-nafois” bo‘lib, bu asarda u o‘z davrida yashagan shoirlar haqida ma’lumot beradi. Bu asar nafaqat adabiy, balki tarixiy-biografik manba sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Unda XV asr adabiy muhitining qiyofasi, ijodkorlarning o‘zaro munosabatlari va saroy hayoti haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Shu jihatdan Navoiy adabiyotshunoslik va tarixshunoslik sohasiga ham hissa qo‘shgan.

Navoiyning tasavvufiy qarashlari ham adabiy yuksalishda muhim o‘rin tutadi. Uning ko‘plab g‘azallarida va nasriy asarlarida komil inson, ruhiy poklik, sabr, tavba va ilohiy ishq g‘oyalari ilgari suriladi. “Lison ut-tayr” asari tasavvufiy ramziy ma’noga ega bo‘lib, unda insonning ma’naviy kamolot sari intilishi qushlar timsoli orqali ifodalangan. Bu asar Attorning “Mantiq ut-tayr” asari an’anasini davom ettiradi, ammo unda Navoiy o‘ziga xos falsafiy qarashlarni ilgari suradi.

Alisher Navoiyning adabiy yuksalishdagi o‘rni shundaki, u Temuriylar davridagi madaniy muhitni umumlashtirib, uni yangi bosqichga olib chiqdi. U turkiy adabiyotga mustahkam poydevor yaratdi va keyingi asrlarda o‘zbek adabiyotining shakllanishiga asos soldi. Uning asarlari keyingi shoirlar uchun namuna bo‘lib xizmat qildi. Hatto Bobur ham o‘z xotiralarida Navoiy ijodini e’tirof etgan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy Temuriylar davrining adabiy yuksalishida markaziy shaxs bo‘lib, u turkiy tilni yuksak adabiy darajaga ko‘tardi, boy va serqirra ijodiy meros qoldirdi, adabiy muhitni tashkil etdi va davlat homiyligi orqali ijodkorlar uchun sharoit yaratdi. Shu sababli XV asrni Temuriylar adabiy uyg‘onish davri deb atashda Navoiy nomi eng asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi.

5.3. Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta'lim tarbiya masalalari.

Temuriylar davri haqida gap ketganda ko'pchilik avvalo harbiy yurishlar, me'morchilik yodgorliklari yoki Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk siymolarni eslaydi. Lekin bu davrning yana bir juda muhim tomoni bor: ta'lim-tarbiya tizimining yuksalishi va pedagogik qarashlarning rivojlanishi. XIV asr oxiri va XV asr davomida Movarounnahr hamda Xuroson hududlarida shakllangan ilmiy-madaniy muhit aynan kuchli ta'lim tizimi bilan chambarchas bog'liq edi. Chunki ilm-fan ravnaqi o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, u avvalo maktab va madrasalarda shakllanadi.

Amir Temur davlatni mustahkamlash jarayonida ilmi, savodli, fikrlay oladigan kadrlar zarurligini yaxshi anglagan. Tarixiy manbalarda uning olimlar bilan maslahatlashib ish tutgani qayd etiladi. Bu holatning o'ziyoq Temur davrida ilm va ta'lim davlat siyosatining bir qismi bo'lganini ko'rsatadi. Temur zabt etilgan hududlardan faqat boylik emas, balki olimlar, hunarmandlar, muhandislar va ustozlarni ham Samarqandga olib kelgan. Natijada poytaxt ilm-ma'rifat markaziga aylangan. Bu esa pedagogik muhitning shakllanishiga zamin yaratgan. Temuriylar davrida ta'lim ikki asosiy bosqichda tashkil etilgan: maktab va madrasa. Maktablar boshlang'ich savod beruvchi muassasalar bo'lib, ularda bolalar avvalo arab alifbosini o'rganar, yozuv mashqlarini bajarish orqali savod chiqarar edi. Keyinchalik Qur'on oyatlaridan parchalar, "Haftiyak" deb atalgan qismlar o'qitilgan. Savod chiqarish jarayoni faqat diniy bilim bilan cheklanmagan, bolalarga odob-axloq qoidalari, milliy urf-odatlar, kattaga hurmat, kichikka izzat kabi tushunchalar ham singdirilgan. Bu esa ta'lim bilan tarbiyaning bir butun jarayon sifatida olib borilganini ko'rsatadi.

O'quvchilar yoshidan qat'i nazar bilim darajasiga qarab kichik, o'rta va yuqori guruhlariga ajratilgan. Kichik bosqichda harf va yozuv, o'rta bosqichda hisob-kitob asoslari, arab raqamlari, oddiy arifmetik amallar o'rgatilgan. Yuqori

bosqichda esa diniy va dunyoviy bilimlar chuqurlashtirilgan. Bu tizim bosqichma-bosqich rivojlanish tamoyiliga asoslangan bo'lib, pedagogik jihatdan o'sha davr uchun ancha mukammal hisoblangan.

Madrasalar esa oliy ta'lim markazi vazifasini bajargan. Bu yerda ilohiyot bilan bir qatorda fiqh, mantiq, riyoziyot, handasa, falakiyot, tarix, adabiyot, aruz ilmi, arab tili va uning grammatikasi o'qitilgan. Ta'lim jarayoni ko'proq ustoz-shogird an'anasi asosida olib borilgan. Talabalar muayyan fan ustozidan saboq olib, ilmiy bahs-munozaralarda ishtirok etganlar. Munozara va savol-javob usuli keng qo'llanilgan, bu esa mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirgan.

Mirzo Ulug'bek davrida ta'lim tizimi yanada takomillashdi. Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda qurilgan madrasalar nafaqat diniy markaz, balki ilmiy muassasa vazifasini ham bajargan. Ulug'bekning Samarqand rasadxonasi esa o'ziga xos ilmiy laboratoriya bo'lib, bu yerda astronomiya va matematika chuqur o'rganilgan. Rasadxona atrofida shakllangan ilmiy maktab pedagogik maktab sifatida ham ahamiyatga ega edi, chunki bu yerda Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi olimlar yosh shogirdlarga ilm sirlarini o'rgatganlar. Ilmiy izlanish bilan birga o'qitish jarayoni ham olib borilgan.

Temuriylar davrida pedagogik fikr faqat rasmiy ta'lim bilan cheklanmagan. Alisher Navoiy asarlarida ham tarbiya masalasiga alohida e'tibor beriladi. U komil inson tarbiyasi haqida fikr yuritarkan, ilm va odobni bir-biridan ajratmaslik kerakligini ta'kidlaydi. Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Nasoyim ul-muhabbat" kabi asarlarida axloqiy tarbiya, insoniy fazilatlar, ustozga hurmat, ilmga muhabbat masalalari keng yoritilgan. Bu asarlar pedagogik fikr tarixida muhim o'rin tutadi. Husayn Boyqaro davrida Hirot shahri ham ilmiy-madaniy markazga aylandi. Bu yerda shoirlar, tarixchilar, tasavvuf ahli va san'atkorlar faoliyat yuritgan. Saroyda adabiy majlislar o'tkazilib, yosh iste'dodlar qo'llab-quvvatlangan. Bu muhit ham pedagogik ahamiyatga ega bo'lib, ijodkorlik va erkin fikrlashni rag'batlantirgan.

Ta'lim-tarbiya jarayonida xususiy maktablar ham muhim o'rin tutgan. Badavlat oilalar bolalariga uyda muallim yollab, savod va odob o'rgatganlar. Bu esa ta'limning ommaviylashuviga xizmat qilgan. Ayniqsa, shahar muhitida savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan. Temuriy malikalar ham ta'lim rivojiga hissa qo'shganlar. Masalan, Saroymulxonim tomonidan qurdirilgan madrasa yoshlar ta'lim oladigan muhim maskan bo'lgan. Bu fakt ayollar ham ma'rifat ishlariga befarq bo'lmaganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davrida pedagogik fikr va ta'lim-tarbiya masalalari yuksak bosqichga ko'tarilgan. Maktab va madrasalar tizimi, ustoz-shogird an'anasi, ilmiy munozara usuli, axloqiy tarbiya g'oyalari o'z davri uchun mukammal ta'lim modelini yaratgan. Aynan shu ta'lim muhiti tufayli Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod kabi buyuk siymolar yetishib chiqqan. Temuriylar davridagi ta'lim tizimi Sharq Uyg'onish jarayonining asosiy tayanchi bo'lgan va keyingi asrlar ma'naviy taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratgan.

Amir Temur o'z davrining keng bilimli va zakovatli hukmdorlaridan biri sifatida shakllangan. U nafaqat harbiy-siyosiy masalalarda, balki tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, me'morchilik va tarix kabi sohalarda ham yetarlicha bilimga ega bo'lgan. Tarixiy manbalarda, xususan, buyuk arab mutafakkiri Ibn Xaldun bilan bo'lgan suhbatlarida Amir Temurning turk, arab va fors xalqlari tarixini chuqur bilishi, diniy va dunyoviy ilmlarning murakkab jihatlarini anglay olishi alohida ta'kidlanadi. Bu holat Sohibqironning shunchaki zabardast sarkarda emas, balki tafakkurli va ilmga chanqoq hukmdor bo'lganini ko'rsatadi.

Temuriylar zamonida madrasalar oliy ta'lim markazlari vazifasini bajargan. Bu ilm maskanlarida ilohiyot bilan birga fiqh, riyoziyot, handasa, falakiyot, tibbiyot, tarix, adabiyot, aruz ilmi, arab tili va uning sarfi-nahvi kabi fanlar o'qitilgan. Amir Temur davrida Movarounnahr ilm-ma'rifat jihatidan yuksak darajaga ko'tarildi. Islom dunyosining taniqli olimlari Samarqand va boshqa

shaharlardagi madrasalarga dars berishga taklif etilgan. Sohibqiron farmoni bilan Samarqandda katta kutubxona tashkil etilib, Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida uning fondi yanada boyitilib, haqiqiy ilmiy markazga aylantirilgan.

Sharofiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”da Amir Temur har qanday masalani hal etishda avvalo mutaxassis va olimlar bilan maslahat qilganini qayd etadi. O‘sha davr maktablarida ta’lim arab alifbosini o‘rgatishdan boshlanib, keyinchalik “Haftiyak”ni mutolaa qilish bilan davom etgan. O‘quvchilar yoshidan qat’i nazar kichik, o‘rta va yuqori guruhlariga bo‘lingan. Dastlabki bosqichda harflar va yozuv, keyingi bosqichda arab raqamlari, hisob-kitob, “Chor kitob” hamda So‘fi Olloyor hikmatlari o‘rgatilgan. So‘nggi bosqichda esa diniy va dunyoviy bilimlar chuqurlashtirilib, islom asoslarini targ‘ib etishga tayyorlanganlar.

Mirzo Ulug‘bek ilm-fan rivojiga alohida ahamiyat bergan. U o‘z atrofida yetuk astronom va matematiklarni jamlab, ularga homiylik qilgan. 1424–1429-yillarda Samarqandda bunyod etilgan Ulug‘bek rasadxonasi o‘z davrining eng yirik ilmiy inshootlaridan biri bo‘lgan. Bu yerda 60 dan ortiq olim faoliyat yuritgan. Jamshid al-Koshiy dastlab rasadxona ishlariga rahbarlik qilgan, keyinchalik Qozizoda Rumiyy va Ali Qushchi faoliyatni davom ettirgan. “Gurgan Zij” yulduzlar katalogida 1018 yulduz tavsiflanib, 38 turkumga ajratilgan. Rasadxona binosi Ulug‘bek vafotidan keyin ham uzoq vaqt saqlanib turgan, keyinchalik uning g‘ishtlari boshqa inshootlar qurilishida ishlatilgan.

Ulug‘bek Samarqand, Buxoro va G‘ijduvonda madrasalar qurdirib, bu shaharlarni ilmiy markazga aylantirdi. Shohrux, Abu Said, Husayn Boyqaro va Bobur kabi Temuriy hukmdorlar ham ilm-fan va san’atni qo‘llab-quvvatladilar. Husayn Boyqaro davrida Hirot yirik madaniy markazga aylandi. Bu yerda Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod, Mirxond kabi ijodkorlar faoliyat yuritgan. Sulton Husaynning o‘zi ham “Risola” asarida Hirotga mingga yaqin shoir ijod qilganini qayd etadi.

XIV–XV asrlarda Samarqandda madrasalar soni ortdi, tabobat, tarix va adabiyot rivojlandi. Boysunqur Mirzo davrida saroy kutubxonalariga alohida e'tibor berildi. Alisher Navoiy masjid, madrasa, hammom, kasalxona, ko'priklar va rabotlar qurdirib, Xalosiya va Ixlosiya kabi maskanlarni madaniyat markaziga aylantirdi. Bu davrda Abdurahim Sadr, Mir Arab, Masjidi Kalon kabi inshootlar ham ta'lim jarayonida muhim rol o'ynadi. Xususiylar maktablari ham rivojlanib, bolalarga uy sharoitida savod o'rgatish kengaydi. Umumiy maktabda savod chiqargan yoshlar madrasalarda bilimni mukammallashtirgan.¹³

Temuriylar maliklari ham ma'rifat rivojiga hissa qo'shgan. Saroyimulkxonim – Bibixonim ilmiy va farosatli ayol sifatida davlat ishlarida faol qatnashgan. U o'z mablag'i hisobidan madrasa qurdirib, yoshlarning ta'lim olishi uchun sharoit yaratgan. Samarqanddagi Bibixonim jome masjidi ham o'sha davrning ulug' yodgorliklaridan biridir. Umuman olganda, Amir Temur va Temuriylar davri ilmiy, ma'naviyat va ta'lim tizimining yuksalish bosqichi bo'ldi. Ularning adolat va osoyishtalik siyosati mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga, xalqning ma'rifatli va axloqiy jihatdan yetuk bo'lib shakllanishiga xizmat qildi. Mustaqillik davrida biz bu boy ma'naviy merosning qadriga yanada chuqurroq yetmoqdamiz.

Temuriylar davrida ma'naviy hayot va diniy tafakkur jamiyatning asosiy tayanchlaridan biri bo'lib, siyosiy tuzum, ijtimoiy munosabatlar va madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. XIV asr oxiri va XV asr davomida Movarounnahr hamda Xuroson hududlarida islom dini jamiyat hayotining markazida turgan bo'lsa-da, bu davr diniy tafakkuri faqat ibodat va marosimlar bilan cheklanib qolmagan, balki ilmiy, axloqiy va falsafiy masalalarni ham qamrab olgan. Shu jihatdan Temuriylar davri diniy hayoti serqirra va murakkab bo'lganini ko'ramiz.

¹³ Jo'rakabirova M.X., Kamalova A.O. Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta'lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati // Science and Education. – 2024. – Vol. 5. – Issue 3. – B. 490–494.

Amir Temur o'zini islom dinining himoyachisi sifatida ko'rsatgan, shariat qoidalariga amal qilishni davlat boshqaruvida muhim omil deb bilgan. U ko'plab masjidlar, madrasalar va maqbaralar qurdirgan, diniy ulamolarni hurmat qilgan. Samarqand va boshqa shaharlarda bunyod etilgan yirik diniy inshootlar nafaqat ibodat maskani, balki ilm o'rgatiladigan markaz vazifasini bajargan. Madrasalarda Qur'on, hadis, fiqh ilmi bilan bir qatorda mantiq va boshqa fanlar ham o'qitilgan. Bu esa diniy tafakkurning tor doirada emas, keng ilmiy asosda rivojlanganini ko'rsatadi.¹⁴

Temuriylar davrida tasavvuf ham ma'naviy hayotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan. Xoja Ahror Valiy kabi mashhur naqshbandiya tariqati vakillari jamiyatda katta obro'ga ega edi. Naqshbandiya tariqati Movarounnahrda keng tarqalgan bo'lib, uning asosiy g'oyasi – ichki poklik, halollik, mehnatsevarlik va dunyodan butunlay uzilmagan holda komillikka erishish edi. Bu g'oyalar shahar aholisi va savdogarlar orasida keng yoyilgan. Tasavvufiy ta'limot adabiyot va san'atga ham ta'sir ko'rsatgan, ko'plab shoirlar asarlarida ilohiy ishq va komil inson mavzusi yoritilgan.

Shohrux va Husayn Boyqaro davrida diniy tafakkur yanada murakkablashdi. Bir tomondan, sunniy islom an'analari mustahkamlangan bo'lsa, ikkinchi tomondan tasavvufiy g'oyalar keng yoyilgan. Bu davrda diniy ulamolar va sufiylar saroy hayotida muhim rol o'ynagan. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy kabi davlat arboblari tasavvuf ahliga hurmat bilan munosabatda bo'lganlar. Navoiy o'z asarlarida tasavvufiy g'oyalarni keng targ'ib qilgan, komil inson, sabr-toqat, tavba va halollik kabi tushunchalarni badiiy obrazlar orqali yoritgan.

¹⁴ Jo'rakabirova M.X., Kamalova A.O. Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta'lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati // Science and Education. – 2024. – Vol. 5. – Issue 3. – B. 490–494.

Temuriylar davrida ma'naviy hayot faqat diniy marosimlar yoki tasavvuf bilan cheklanmagan. Axloqiy tarbiya, adolat, halollik va ijtimoiy mas'uliyat masalalari ham keng muhokama qilingan. Madrasalarda diniy ilmlar bilan bir qatorda axloqiy risolalar o'qitilgan. Bu davrda yozilgan ko'plab asarlarda hukmdorning adolatli bo'lishi, xalqning birligi, ilmning qadri va mehnatning ahamiyati ta'kidlangan. Bu esa ma'naviy hayot davlat siyosati bilan uyg'un holda shakllanganini ko'rsatadi. Diniy tafakkurda ilmga alohida o'rin berilganini ham ko'ramiz. Islom an'anasiga ko'ra ilm olish ibodatning bir turi hisoblangan, shu bois ilm-fan rivoji bilan diniy hayot o'rtasida qarama-qarshilik kuzatilmagan. Aksincha, ko'plab olimlar bir vaqtning o'zida diniy ulamo ham bo'lgan. Masalan, astronom va matematiklar diniy kalendar tuzishda, namoz vaqtlarini aniqlashda faol ishtirok etganlar. Bu esa ilmiy tafakkur va diniy e'tiqod o'zaro uyg'un holda mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Temuriylar davrida diniy bag'rikenglik masalasi ham e'tiborga molikdir. Asosan sunniy islom hukmron bo'lgan bo'lsa-da, turli diniy oqim vakillari bir hududda yashagan. Savdo aloqalari orqali boshqa hududlardan kelgan kishilar ham o'z diniy an'alarini saqlab qolgan. Bu jarayon shahar madaniyatining rang-barang bo'lishiga olib kelgan.

Ma'naviy hayotda maqbaralar va ziyoratgohlar ham muhim o'rin tutgan. Shohizinda majmuasi, Go'ri Amir maqbarasi kabi maskanlar diniy va ma'naviy markaz vazifasini bajargan. Bu joylar nafaqat ibodat uchun, balki tarixiy xotira va ruhiy birlik timsoli sifatida ham qadrlangan. Ziyorat madaniyati jamiyatda ma'naviy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davrida ma'naviy hayot va diniy tafakkur jamiyatning barcha qatlamlariga ta'sir ko'rsatgan muhim omil edi. Islom dini, tasavvufiy ta'limot, axloqiy qadriyatlar va ilmga hurmat bir butun tizim sifatida shakllandi. Diniy muhit siyosiy barqarorlik va madaniy yuksalish bilan uyg'un holda rivojlandi. Shu bois Temuriylar davri nafaqat ilm-fan va san'at, balki ma'naviy hayotning ham yuksalish davri sifatida tarixda alohida o'rin egallaydi.

VI-BOB. TEMURIYLAR DAVRI MEROSI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI

6.1. Temuriylar davri ilmiy va madaniy merosining ahamiyati

Amir Temur davrida Markaziy Osiyoda ilm-fan, madaniyat va san'at yuksak darajada rivojlangan. Temur davrida ko'pgina inshootlar o'zining nafis bezaklari, gumbazlari va koshinkorlari bilan ajralib turgan. Ushbu davrda ilm, fan va san'at bir-biri bilan bog'liq holda taraqqiy etgan. Temur davrida Samarqandning Ohanin, Feruz, Suzangarkhon, Karizgoh, Chorsu va Shayxzoda nomli oltin darvozalari bo'lgan. Temur davrida qurilgan binolarning talaygina qismi bizgacha yetib kelgan. Saqlanib qolganlari ham o'sha davr me'morchiligining nihoyatda yuksak darajada bo'lganini ko'rsatib turadi. Bular jumlasiga Samarqanddagi Shohi Zinda tarixiy yodgorligi tarkibidagi maqbaralar, Bibi Xonim masjidi, maqbarasi va madrasasi qoldiqlari, Rukhabod (Shayx Burhoniddin Sag'arjiy maqbarasi), Guri Amir maqbarasi, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Jahongir maqbarasi (xonaqohi), Shamsiddin Kulol maqbarasi xarobalari hamda Turkmanistondagi Xoja Ahmad Yassaviy xonaqohini kiritish mumkin. Fan va madaniyat taraqqiyoti haqida so'z yuritish ekanmiz, o'sha yuksak darajadagi madrasalar haqida ham to'xtalib o'tish lozim. Ma'lumki, O'rta Osiyo shaharlarida butun o'rta asrlar davomida ko'plab madrasalar barpo etilgan. Shuningdek, XIV–XV asrlarda ham bu an'ana davom ettirilgan.

Jumladan, Samarqandda Amir Temur tomonidan Bibi Xonim masjidi ro'parasida madrasa qurilgan, degan fikr mavjud. Yana bir madrasa —Guri Amir ansambli hovlisining sharqiy qismida joylashgan Muhammad Sulton nomi bilan atalgan binodir.

Amir Temur va Temuriylar davrida madrasalar oliy ma'lumot beruvchi markaz vazifasini bajargan. Shu tariqa madrasalar ko'payib, oliy o'quv dargohi sifatida diniy soha vakillari, siyosiy arboblarning hamda olimlar yetishtirilgan o'quv yurti sifatida shakllanib borgan.

Shahrisabz — O‘zbekistonning eng qadimiy va tarixiy shaharlaridan biri bo‘lib, u yerda juda ko‘p obidalar va me‘moriy yodgorliklar mavjud. Ularning aksariyati Amir Temur davri va Temuriylar sulolasi davriga tegishlidir. Bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Oqsaroy — Shahrisabzning arki hisoblanadi. Uning qurilishi 1380-yildan boshlangan bo‘lib, Ispaniya qiroli Karl III ning Temur saroyidagi elchisi Rui Gonsales de Klavixoning ma‘lumotiga ko‘ra, hatto 1404-yilda ham ba‘zi pardozi ishlari davom etgan. Inshoot hovlining to‘rt tomonini o‘rab olgan muhtasham imoratlardan tashkil topgan. Uning ichida Amir Temurning o‘zi va o‘g‘illari uchun alohida saroy xonalari barpo etilgan. Shuningdek, boshqa ko‘plab xizmat xonalari ham mavjud bo‘lgan. Arkning kirish qismi ulkan peshtoqdan iborat bo‘lib, bu peshtoqning ikki tayanch qismi hozirgacha saqlanib qolgan. Peshtoqning tokchasining eni 22,5 metr, dastlabki balandligi esa 60 metr bo‘lgan deb taxmin qilinadi. Shahrisabz markazida XV asrga oid hammom kovlab ochilgan. Bu hammom o‘sha davrda shahar aholisi madaniy hayoti va shaharsizlik madaniyatining yuksak darajada rivojlanganini ko‘rsatadi.

Samarqand — buyuk Amir Temur nomi bilan atalgan hamda uning birinchi poytaxti sifatida tanilgan qadimiy shaharlardan biridir. Temuriylar davrida Samarqand Markaziy Osiyoning eng yirik madaniy, ilmiy va me‘moriy markaziga aylangan. Bu davrda shahar hududida ko‘plab yodgorliklar, inshootlar, madrasalar, masjidlar, maqbaralar, ko‘priklar va saroylar bunyod etilgan.

Samarqandning me‘moriy obidalari o‘zining betakror bezaklari, naqshinkor devorlari, gumbazlari va nafis koshin bezaklari bilan ajralib turadi. Me‘morchilikda qurilish — obodonlashtirish ishlari yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, inshootlar ichki va tashqi jihatdan go‘zal tarzda bezatilgan.

Dunyoga mashhur Shohi Zinda, Hazrati Xizr, Ulug‘bek madrasasi, Madaniy majmualar, Amir Temur maqbarasi (Gur Amir), Bibi Xonim masjidi, Moturidi maqbarasi, Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi, Abdurahmon Jomiy,

Kaffol Shoshiy, SayyidBaraka kabi aziz-avliyolar va ulug' allomalar qabrlari Samarqand shahrida joylashgan. Ushbu ziyoratgohlar butun dunyo musulmonlari tomonidan e'zozlanadi.

Registon maydoni va undagi madrasa majmualari ham Samarqand shahrining eng ulug' me'moriy obidalarini sirasiga kiradi. Bu maydon asrlar davomida ilm-fan, savdo va siyosiy hayot markazi bo'lib kelgan. Amir Temur davridan boshlab Registon maydoni shaharning yuragi, xalq yig'inlari, diniy marosimlar va ilmiy anjumanlar o'tkaziladigan joy bo'lgan.

Samarqandning bugungi qiyofasida ham o'sha buyuk tarixiy me'moriy an'analar o'z aksini topgan. Temuriylar davrida bunyod etilgan bu obidalar hozirda nafaqat O'zbekiston, balki butun jahon madaniy merosining ajralmas qismi sifatida qadrlanadi. 1417-yilda Mirzo Ulug'bekning farmoni bilan madrasa qurilishi boshlangan. G'arbiy tomondan xam masjid va madrasa qurilgan bo'lib, bu inshoot Samarqanddagi Registon maydonining markaziy qismi hisoblanadi. Binoning janubiy tarafida joylashgan darvozaxonasi bezaklari bilan ajralib turadi.¹⁵

Mirzo Ulug'bek tomonidan qurilgan madrasaning devorlari betakror ishlangan bo'lib, unda har xil naqshlar o'yib bezatilgan. Madrasa namozgohi, darsxonasi va xonaqosi bilan mashhur bo'lgan.

Shuningdek, madrasa ichida kutubxona joylashgan bo'lib, bu yerda Alisher Navoiy, Ali Qushchi, G'iyosiddin Jamshid kabi allomalar dars berganlar. Tashqaridagi darsxona ham juda chiroyli ishlangan. Bu darsxona ko'plab gumbazlar bilan bezatilgan. Madrasa 54 ta hujra va 4 ta katta darsxona majmuasidan iborat bo'lgan. Uning hovlisining turi ham Ulug'bek

¹⁵ Sh.Xusanova, Saidalimova M.B. Temuriylar davri madaniy meros obidalarini // International Conference of Science & Technology materiallari. – 107–110-betlar.

madrasasining qadimiy arxitekturasini ko'rsatadi. Tillakori madrasasi bilan yonma-yon joylashgan bu madrasa Tillakori madrasasining bir qismi sifatida ham ishlatilgan. Binoning devorlari ko'k rangli koshinlar bilan bezatilgan 43 ta hujra mavjud bo'lib, bu hujralar talabalar uchun mo'ljallangan. Mirzo Ulug'bek madrasasining g'arbiy tomoniga esa masjid barpo etilgan.

Amir Temur maqbarasi O'rta Osiyoda eng mashhur me'moriy asarlar sirasiga kiradi. Maqbara qurilishi Amir Temur tomonidan 1404-yilda boshlangan.

Mirzo Ulug'bek davrida bu inshoot yanada mukammallashtirilgan. Me'morlar bir-biriga mos shakllardan. Gumbaz ostki qisimning aylanasi diametri 15 metr, aylana balandligi 12,5 metr bo'lsa, uning og'irligi sezilmaydi.

Shohi Zinda majmuasi ko'hna Samarqandning janunbiy qismida joylashgan bo'lib, musulmonlarning muqaddas ziyoratgohlaridan biridir. Maqbaralar orasida 1372 yilda qurilgan Shodimulk oqo maqbarasi Shoxi Zindada Amir Temur davrida qurilgan birinchi inshoot hisoblanadi. Maqbarada guzal naqsh va yozuvlar o'z aksini topgan. Tug'liq Tekin maqbarasida orom topgan navbatdagi mahrum Amir Husayn bo'ladi. Maqbara peshtoq, sag'ana ustiga hijriy 777 yil sanasi bitib qo'yilgan. Maqbaraga sarkardaning onasi Tug'li Tekin ham dafn etilganligi to'g'risida tarixiy manbalarda malumot keltirilgan.

Amirzoda maqbarasiga dafn etilgan sarkarda Amirzoda va unga tegishli aslzodalardan yetti nafar kishi dafn etilgan. Arxeologik izlanishlar bu inshootni ko'plab topilmalarga asoslanib Amir Temur davrining husnkor binolaridan deb ta'kidlanadi.

Tadqiqotchilarning yozishicha, Temur davrida Samarqand Markaziy Osiyoning eng yirik me'moriy markaziga aylangan. Shahar yuzlab inshootlar — masjid, madrasa, maqbara va saroylar bilan bezatilgan. Ayniqsa, Bibi Xonim masjidi, Shohi Zinda majmuasi va Guri Amir maqbarasi o'zining nafis

bezaklari, koshinlari va gumbazlari bilan Temuriylar davri me'morchiligining eng go'zal namunalaridan sanaladi. Bu obidalar nafaqat diniy, balki ilmiy va madaniy hayot markazi vazifasini ham bajargan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va Temuriylar davri O'zbekiston tarixida madaniyat, ilm-fan va me'morchilikning eng yuksak cho'qqilaridan biri bo'lgan. Ushbu davrda bunyod etilgan Samarqand va Shahrisabz me'moriy obidalari, madrasalar va ziyoratgohlar nafaqat o'z davrining, balki jahon sivilizatsiyasining bebaho durdonalari sifatida bugungi kungacha o'z qadrini yo'qotmagan. Bu obidalar xalqimizning boy tarixiy merosi va yuksak madaniyatidan dalolat beradi.

Temuriylar davri ilmiy va madaniy merosi haqida so'z yuritganda, bu davrni shunchaki bir tarixiy bosqich sifatida emas, balki Markaziy Osiyo va butun Sharq sivilizatsiyasi taraqqiyotida alohida burilish yasagan davr sifatida baholash to'g'ri bo'ladi. XIV asr oxiri va XV asr davomida shakllangan ilmiy, adabiy, me'moriy va ma'naviy yutuqlar keyingi asrlarda ham o'z ta'sirini saqlab qoldi. Temuriylar davrining merosi nafaqat o'sha davr jamiyati ehtiyojlarini qondirdi, balki keyingi avlodlar uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Avvalo ilmiy meros haqida to'xtaladigan bo'lsak, Mirzo Ulug'bek va uning atrofidagi olimlar tomonidan yaratilgan astronomik va matematik asarlar jahon ilm-fani tarixida muhim o'rin tutadi. Samarqand rasadxonasida olib borilgan kuzatuvlar natijasida tuzilgan "Zij-i Gurgoniy" asari asrlar davomida Sharq va G'arb olimlari tomonidan foydalanilgan. Ulug'bekning yulduzlar jadvali aniqligi bilan ajralib turadi va keyinchalik Yevropa astronomiyasi rivojiga ham ta'sir ko'rsatgan. Bu fakt Temuriylar davrida yaratilgan ilmiy merosning mintaqaviy emas, balki umumjahon ahamiyatiga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Temuriylar davrida tarixshunoslik ham yuqori darajaga ko'tarildi. Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond va Xondamir kabi tarixchilar tomonidan yaratilgan asarlar o'sha davr siyosiy va ijtimoiy

hayotini batafsil yoritib bergan. Bu asarlar bugungi kunda ham tarixchilar uchun asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ular orqali Temuriylar davrining siyosiy tuzilishi, diplomatik aloqalari, iqtisodiy hayoti va madaniy muhiti haqida aniq tasavvur hosil qilish mumkin.

Adabiy meros masalasiga keladigan bo'lsak, Alisher Navoiy ijodi Temuriylar davrining eng muhim madaniy yutuqlaridan biridir. Navoiy turkiy tilni yuksak adabiy darajaga ko'tardi, uni jahon adabiyoti miqyosiga olib chiqdi. Uning "Xamsa"si, devonlari va nasriy asarlari keyingi asrlar adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Navoiy ijodi nafaqat badiiy qiymatga ega, balki ma'naviy va axloqiy g'oyalarni targ'ib qilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Uning asarlarida adolat, insonparvarlik, komillik va ilmga hurmat g'oyalari ilgari surilgan, bu esa jamiyat ma'naviy hayotiga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Me'morchilik merosi ham Temuriylar davrining eng yorqin yodgorliklaridan biridir. Samarqanddagi Bibixonim masjidi, Go'ri Amir maqbarasi, Shohizinda majmuasi, Ulug'bek madrasasi hamda Hirotidagi me'moriy inshootlar bugungi kunda ham o'zining badiiy va tarixiy qiymatini yo'qotmagan. Bu obidalar nafaqat diniy yoki ma'muriy inshootlar, balki o'z davrining estetik didi, texnik imkoniyatlari va muhandislik yutuqlarini aks ettiruvchi yodgorliklardir. Temuriylar me'morchilik uslubi keyinchalik Eron va Hindistonda ham davom ettirildi, xususan Boburiylar davrida qurilgan ayrim inshootlarda Temuriylar an'anasining izlari yaqqol seziladi.

Tasviriy san'at va miniatyura maktabi ham Temuriylar davri merosining muhim qismi hisoblanadi. Kamoliddin Behzod boshchiligidagi Hirot miniatyura maktabi Sharq san'ati tarixida alohida o'rin egallaydi. Bu maktabda yaratilgan qo'lyozmalar va tasvirlar bugungi kunda dunyoning yirik muzeylarida saqlanmoqda va san'atshunoslar tomonidan yuqori baholanmoqda. Miniatyura san'ati nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki tarixiy voqealarni aks ettiruvchi manba sifatida ham ahamiyatlidir.

Temuriylar davrining ma'naviy merosi ham nihoyatda muhimdir. Tasavvufiy tafakkur, axloqiy qadriyatlar va ilmga hurmat jamiyat hayotining asosiy mezonlariga aylangan. Bu davrda shakllangan ma'naviy muhit keyingi asrlarda ham davom etdi. Naqshbandiya tariqati g'oyalari, komil inson tushunchasi va adolatli hukmdor ideali Temuriylar davrida mustahkamlandi va keyingi davr siyosiy-falsafiy qarashlariga ta'sir ko'rsatdi.

Temuriylar davri merosining ahamiyati shundaki, u keyingi siyosiy tuzumlar va madaniy jarayonlarga ta'sir ko'rsatdi. Bobur Hindistonda Boburiylar davlatiga asos solganida, o'zi bilan Temuriylar madaniy an'analarini ham olib bordi. Hindistonda qurilgan bog'lar, saroylar va adabiy muhitda Temuriylar ruhini ko'rish mumkin. Bu esa Temuriylar davri merosining uzoq muddatli va keng hududli ta'sirga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri ilmiy va madaniy merosi jahon sivilizatsiyasi tarixida muhim o'rin tutadi. Ilm-fan, adabiyot, me'morchilik, tasviriy san'at va ma'naviy hayot sohalarida yaratilgan yutuqlar nafaqat o'z zamonasi uchun, balki keyingi asrlar uchun ham katta ahamiyat kasb etdi. Shu sababli Temuriylar davrini Sharq uyg'onishining muhim bosqichi sifatida baholash to'g'ri bo'ladi.

6.2. Temuriylar davri va Sharq Uygʻonish jarayoni

Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida shunday bir bosqich boʻldiki, unda ilm-fan, maʼnaviyat va madaniyat uygʻun holda rivojlandi va bu jarayon Sharq Uygʻonishining muhim davomiy bosqichi sifatida namoyon boʻldi. XIV asr oxiri va XV asr davomida Movarounnahr hamda Xuroson hududlarida shakllangan ilmiy muhit tasodifiy hodisa emas edi, balki davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlangan maʼrifiy siyosat, olimlarga yaratilgan sharoit va hukmdorlarning shaxsiy ilmga boʻlgan qiziqishi natijasi edi. Ayniqsa, Mirzo Ulugʻbek faoliyati Temuriylar davrini Sharq Uygʻonishining eng yorqin choʻqqilaridan biriga aylantirdi.

Sharq Uygʻonishi deganda, avvalo, ilmiy tafakkurning kengayishi, tajriba va kuzatuvga asoslangan ilmiy yondashuvning shakllanishi, madaniy va maʼrifiy hayotning jonlanishi tushuniladi. Temuriylar davrida aynan shu jarayonlar aniq koʻzga tashlanadi. Samarqand va Hirot shaharlari nafaqat siyosiy markaz, balki ilmiy va madaniy markaz sifatida ham tanildi. Bu davrda hukmdorlarning oʻzi ilmga befarq boʻlmagan, aksincha, uni davlat qudratining muhim tayanchi deb bilgan.¹⁶

Mirzo Ulugʻbek ana shu ilmiy uygʻonishning markazida turgan buyuk siymo edi. U davlat boshqaruvi bilan bir qatorda astronomiya, matematika va tarix fanlari bilan jiddiy shugʻullangan. Uning tashabbusi bilan Samarqandda barpo etilgan rasadxona oʻsha davr uchun nihoyatda yirik va mukammal ilmiy inshoot boʻlib, bu yerda olib borilgan kuzatuvlar ilm-fan tarixida muhim burilish yasadi. Rasadxona faoliyati faqat yulduzlarni kuzatish bilangina cheklanmay, ilmiy maktab shakllanishiga xizmat qildi. Bu yerda Qozizoda Rumiy, Gʻiyosiddin Jamshid Koshiy, Ali Qushchi kabi olimlar birgalikda ishlagan, ilmiy bahs va tadqiqotlar

¹⁶ Rustamov I.A., Rahmonov Sh.Y. Mirzo Ulugʻbekning ilm-fan rivojiga qoʻshgan ulkan hissasi va Temuriylar davridagi ilmiy uygʻonish // Tadqiq va tatbiq: ilmiy-uslubiy jurnal. – 2025. – Tom 03. – Son 12. – B. 126–128.

olib borgan. Ulug‘bekning “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari Sharq astronomiyasining eng aniq va mukammal yutuqlaridan biri bo‘lib, unda 1018 yulduzning koordinatalari aniqlik bilan qayd etilgan. Bu jadval bir necha asr davomida Sharq va G‘arb olimlari uchun asosiy qo‘llanma vazifasini bajardi. Ba’zi tadqiqotchilar bu ilmiy aniqliklar keyinchalik Yevropada yuz bergan ilmiy inqilob jarayonlariga ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatganini ta’kidlashadi. Shu jihatdan qaraganda, Temuriylar davri ilmiy uyg‘onishi faqat mintaqaviy hodisa emas, balki umuminsoniy taraqqiyotning bir bo‘lagi edi.

Temuriylar saroyida ilm ahliga bo‘lgan hurmat alohida e’tiborga molik. Hukmdorlar olimlarni moddiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlagan, ilmiy izlanishlar uchun sharoit yaratgan. Madrasalar, kutubxonalar, rasadxonalar qurilgan. Bu muhit natijasida ilmiy maktablar shakllandi. Ilmiy bahs-munozara, tajriba va kuzatuvga asoslangan yondashuv keng tarqaldi. Bu esa Sharq Uyg‘onishining asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

Temuriylar davridagi uyg‘onish faqat astronomiya yoki matematika bilan cheklanib qolmadi. Adabiyot, tarix, tasavvuf va san’at sohalarida ham katta siljishlar yuz berdi. Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Behzod, Mirxond kabi allomalar faoliyati aynan shu ilmiy-madaniy muhit mahsuli edi. Ularning ijodi Sharq tafakkurining yuksak darajasini namoyon etdi. Demak, Temuriylar davrida ilmiy uyg‘onish ko‘p qirrali bo‘lib, turli sohalarni qamrab olgan.

